



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

Mansurova Surayyo Ravshanovna

**TARBIYACHINING KASBIY MAHORATI
VA KOMPETENTLIGI**

kasbiy qayta tayyorlash kurs tinglovchilari uchun

DARSLIK

Navoiy - 2026

Mansurova,
 Tarbiyachining kasbiy mahorati va kompetentligi [tekst]: Darslik./ -Navoi: «Aziz kitobxon», 2026.- 172B.

Mazkur darslik tarbiyachilarning kasbiy mahorati va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan. Unda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda amaliy ko'nikmalar keng yoritilgan. Darslik kasbiy qayta tayyorlash kurs tinglovchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, unda tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish yo'llari ham ko'rsatib berilgan. Amaliy misollar va tavsiyalar orqali tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlantiriladi. Darslik pedagoglar, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun foydali manba hisoblanadi.

Данное учебное пособие направлено на развитие профессионального мастерства и компетентности воспитателя. В нем освещены современные педагогические подходы, инновационные методы и практические навыки. Пособие предназначено для слушателей курсов профессиональной переподготовки и способствует укреплению их теоретических знаний. Особое внимание уделено формированию личностных и профессиональных качеств воспитателя. Рассматриваются пути повышения эффективности образовательного процесса. Приведены практические примеры и рекомендации для развития самостоятельного мышления воспитанников. Учебник может быть полезен педагогам, методистам и специалистам в области образования.

Tuzuvchi:

S.R.Mansurova - Navoiy viloyati PMM “Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD) .

Taqrizchilar: G.M.Nazirova – Qo'qon davlat universiteti prof. p.f.d (DSc)

K.M.Astanakulov – Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi prof.

Navoiy viloyati pedagogika mahorati markaz Kengashining 2026-yil 29 -apreldagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

№	MAVZULAR	SAHIFA
NAZARIY MASHG‘ULOT MAVZULARI		
1.	MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMPETENSIYASI	7-36
2.	TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI	37-46
3.	ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIDJI.	47-58
4.	TARBIYACHI-PEDAGOG FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV	59-79
5.	MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI	80-103
6.	TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI	104-133
AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI		
7.	MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMPETENSIYASI	134-136
8.	TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI	137-140
9.	ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIDJI.	141-146
10.	TARBIYACHI-PEDAGOG FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV	147-151
11.	MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI	152-154
12.	TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI	155-157
13.	MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH	158-160
14.	RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMI	161-162
15.	GLOSSARIY	163-170
16.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	171-172

KIRISH

Maktabgacha ta'lim taraqqiyotini samarali boshqarish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Ta'limiy jarayonlarni tizimli olib borish va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi yaqindan yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan.

Maktabgacha ta'lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 16-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori², O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-sonli³, 2024-yil 20 dekabrda "Maktabgacha va maktab

¹ <https://lex.uz/docs/4646908?ONDATE=15.03.2023>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.
<https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

³ <https://lex.uz/docs/-5179335>

ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 867-sonli qarorlari⁴ hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazrligining 2024-yil 24-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etish to'g'risidagi”dagi 410-sonli buyrug'ida sohada faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarga uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid bir qancha vazifalar amalga oshirish ko'zda tutilgan. Pedagogik kompetensiyalar bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi tarbiyachidan yuqori kasbiy mahorat va yuksak kompetentlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur darslik tarbiyachining kasbiy mahorat va kompetentligini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u kasbiy qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan. Unda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, tarbiya jarayonini samarali tashkil etish usullari va shakllari yoritilgan.

Darslikda tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari, kommunikativ ko'nikmalari, ijodkorlik qobiliyati hamda pedagogik

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-7271575>

madaniyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda individual yondashuvni ta'minlash, ularning intellektual va ma'naviy rivojini qo'llab-quvvatlashga doir tavsiyalar keltirilgan.

Ushbu darslik nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, misollar va mustaqil ish topshiriqlari orqali tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslik pedagoglar, metodistlar va maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega manba hisoblanadi.

Tarbiyachining kasbiy mahorati va kompetentligi modulining o'quv dasturi kasbiy qayta tayyorlash kurslari o'quv rejasiga asosida tuzilgan bo'lib, u maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi uchun ta'limda zamonaviy yondashuvlar, kasbiy mahoratni oshirish yo'llari, innovatsiyalarning mazmun, mohiyatini yoritib, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun imkon yaratadi.

NAZARIY MASHG'ULOT MAVZULARI

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMPETENSIYASI

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining o'рни va ahamiyati
2. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari va ularning turlari
3. Tarbiyachining kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari va zamonaviy talablar

Tayanch iboralar:

kasbiy kompetensiya, pedagogik mahurat, innovatsion yondashuv, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, metodik tayyorgarlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), tarbiyaviy faoliyat, refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining o'рни va ahamiyati

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari shakllanadi. Bu jarayonda esa tarbiyachining o'рни beqiyosdir.

Tarbiyachi — bu nafaqat bolalarga bilim beruvchi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga yo'l ko'rsatuvchi muhim pedagogdir. U har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning qobiliyatlarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi hamda ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi bolalar bilan bevosita ishlaydi. Ularning nutqini rivojlantiradi, axloqiy sifatlarini shakllantiradi, gigiyenik ko'nikmalarni singdiradi va sog'lom turmush tarziga o'rgatadi. Shu bilan birga, tarbiyachi bolalarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va jamiyatga foydali inson bo'lish tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalar ni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan hayot, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktab gacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati, fiziologiyasi va yosh xususiyatlarini tushunishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini belgilaydi.

Buning uchun har bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
2. Aqliy qobiliyatini o'stirish.
3. Milliy qadriyatimiz va ma'naviyatimizning g'oya viy, aqliy tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlari ni tarkib toptirish.
4. Ona Vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish.
5. Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini, halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish. Demak, yuqorida keltirilgan

sifatlarni tarkib toptirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi. Lekin tarbiyachi ishlarga asoslanib, bolalarni mustaqil hayotga va mehnat ga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin⁵.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi: kelajak mutaxassislari nima bilishi va nimadan boshlashi kerak.

Maktabgacha ta'lim pedagogigi — bu maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlashni amalga oshiruvchi mutaxassis.

Maktabgacha ta'lim pedagogining vazifalari nimalardan iborat?

Pedagogning asosiy vazifasi — bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan ta'limiy muhitni yaratish. U bolalarni maktabga muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradigan dars va mashg'ulotlarni rejalashtiradi va o'tkazadi. Bu ko'nikmalarga o'qish, yozish, sanash, shuningdek tengdoshlar va o'qituvchilar bilan muloqot qilish kiradi.

Maktabgacha ta'lim pedagogining yana bir muhim vazifasi — bolalarni tarbiyalash. U bolalarga xulq-atvor qoidalari va meyorlarini o'rgatadi, nizolarni hal qilishni hamda atrofdagilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishni o'rgatadi.

Pedagog har bir bolaning rivojlanishini kuzatib boradi, uning yutuqlarini baholaydi va bu haqda ota-onalarga ma'lumot beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun rahbariyatga hisobotlar tayyorlaydi. Pedagog barcha bolalarni, ularning xususiyatlari va ehtiyojlaridan qat'i nazar, ta'lim jarayoniga jalb

⁵ X. Meliyev, O. Jamoldinova, K. Risqulova. – Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o'quv qo'llanma / Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.

etishini ta'minlashi kerak. Shuning uchun pedagog sog'lig'ida alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan qanday ishlashni tushunishi muhim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash va o'qitishning muhim omili — pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikdir. Maktabgacha ta'lim pedagoglari ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularni bolalarning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida xabardor qilib boradi.

Pedagogning yana bir vazifasi — mashg'ulotlar va o'yinlar vaqtida bolalar xavfsizligini ta'minlash va kutilmagan holatlar yuzaga kelganda tezkor chora ko'rishdir.

Shuningdek, pedagog doimo o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Bu unga maktabgacha ta'limdagi so'nggi tendensiyalardan xabardor bo'lish, yangi o'qitish usullari va ta'lim standartlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Birinchidan, pedagog bolalar bilan ishlashni yaxshi ko'rishi kerak. Bu juda muhim, chunki pedagog ular bilan ko'p vaqt o'tkazadi. Bolalar bilan ishlash unga zavq bag'ishlashi lozim, aks holda pedagogning salbiy his-tuyg'ulari ular bilan muloqotga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, pedagog bolalar va ularning ota-onalariga nisbatan juda xushmuomala bo'lishi, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida yoki ota-onalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni hal qila olishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ota-onalar bilan hamkorlikka bog'liq. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari hisoblanadi, shuning uchun tarbiyachi ular bilan doimiy aloqada bo'lishi kerak.

Hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- ota-onalar yig'ilishlari;
- individual suhbatlar;

- ochiq mashg'ulotlar;
- maslahat va tavsiyalar berish.

Bu orqali ota-onalar bolaning rivojlanish jarayonidan xabardor bo'lib turadi va uy sharoitida ham tarbiya ishlarini davom ettiradi. Tarbiyavchi esa ota-onalarga bola psixologiyasi, tarbiya usullari va muammolarni hal etish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Uchinchidan, pedagog ishiga ijodiy yondashishi zarur. Agar mashg'ulotlar qiziqarli bo'lmasa, bolalar tez charchaydi va ularni darsda ushlab turish qiyin bo'ladi. Shuning uchun pedagog bolalarning e'tiborini jalb qilish va mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazish yo'llarini topa bilishi kerak. Shu bilan birga, pedagog to'g'ri va ravon nutqqa ega bo'lishi, boy so'z boyligiga ega bo'lishi muhim, chunki bolalar kattalarning gapirish uslubini tez o'zlashtiradi.

Yana bir muhim sifat — stressga chidamlilik. Chunki bolalar bilan ishlash jarayonida ko'pincha kutilmagan holatlar yuzaga keladi va ularni xotirjamlikni saqlagan holda tez hal qilish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining ahamiyati uning bola shaxsini shakllantirishdagi hal qiluvchi o'рни bilan belgilanadi. Ilk bolalik davri inson hayotida eng muhim bosqich hisoblanib, aynan shu paytda shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy asoslari shakllanadi. Shu sababli tarbiyachi faoliyati nafaqat ta'lim berish, balki bolaning kelajak hayotiga poydevor yaratish vazifasini ham bajaradi.

O'zbek pedagog-olimi N.G'. Nurmuxamedova maktabgacha ta'limda tarbiyachi bolaning rivojlanish muhitini tashkil etuvchi asosiy subyekt bo'lib, u bolaning bilish faolligini rag'batlantirish orqali uning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi – deb ta'kidlaydi⁶. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarbiyachining ahamiyati

⁶ Нурмухамедова Н.Ф. *Мактабгача педагогика асослари*. — Тошкент: Ўқитувчи, 2018.

faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki bolaning ichki imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Shuningdek, o'zbek olimi M.X. Toxtaxo'jayeva o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim pedagogini "shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshiruvchi yetakchi figura" sifatida baholaydi⁷. Uning fikricha, tarbiyachi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi orqali bolada mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagogi – tarbiyalanuvchilarning gender o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olib ta'limiy faoliyatni tashkil etish juda muhimdir.

Gender xususiyat – bu shaxsning fiziologik va ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lib, uning hissiy-irodaviy jarayonlari, idrok mexanizmlari hamda tafakkur, diqqat va xotira tizimlari faoliyatida aks etadi. Bolalarni maktabga tayyorlash, boshlang'ich ta'lim-tarbiya berish, ularning yoshiga mos ravishda qiyin bo'lmagan birlamchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga qaratilgan bo'lishi bilan birga, ularda nutq, tafakkur va axloqiy sifatlarni rivojlantirish bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Chunki, bu bosqich bolalarni o'ta murakkab psixikaga ega bo'lgan shaxsga aylanayotgan davri bo'lib, bu davrda ularning bilimlarni o'zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o'ziga xosliklarga ega. Ushbu o'ziga xosliklar – tafakkur strategiyasi, xotira va diqqatning turlari, yetakchi reprezentativ tizimlar kabi bir qator individual sifatlar u yoki bu darajada inson jinsiga ham bog'liq ekanligidadir.

⁷ Toxtaxo'jayeva M.X. *Педагогика назарияси.* — Тошкент: Фан ва технология, 2019.

**O'g'il va qiz bolalarning ma'lumotlarni qabul qilish,
o'zlashtirish va atrofga uzatishlarida o'ziga xos xususiyatlari**

№	Qiz bolalar	O'g'il bolalar
1.	Ma'lumotlarni o'zlashtirishda miqdoriy yondashuvning yetakchiligi	Ma'lumotlarni o'zlashtirishda sifat yondashuvining yetakchi bo'lishi
2.	Konkret tafakkurga tayanish	Abstrakt tafakkurga tayanish
3.	Algoritmga, shablonga va ijrochilikka moyillik	Ijod va mustaqillikka moyillik
4.	Intuitsiya va oldindan ko'rish, emotsional-hissiy asosda taxlil qilish ko'nikmasining xosligi	Sintez, ratsional asosda umumlashtirish ko'nikmasining ustunligi
5.	Monologga va so'zlashga moyillik	Dialogga va munozaraga moyillik
6.	Nostandart vaziyatlarda diqqatni jamlashning pastroq bo'lishi, biroq diqqatning tanlovchanligi va hajm ko'rsatkichlarining balandligi	Nostandart vaziyatlarda diqqat konsentratsiyasining balandligi
7.	Qisqa vaqtli xotira hajmining kattaligi	Qisqa vaqtli xotira hajmining kichikligi
8.	O'ng yarimsharining nisbatan tezroq toliqishi	Chap yarimsharining nisbatan tezroq toliqishi

Xususan, qiz bolalar ma'lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishlari, bunda tahlil xususiydan umumiyga yo'nalganligi bilan farq qilishi, o'g'il bolalar esa, voqeilikni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashga hamda tafakkurining umumiydan xususiyga moyilliklari bilan farq qiladilar. Ta'lim faoliyatiga gender yondashuv o'g'il va qiz bolalarni alohida guruhlariga bo'lib o'tkazilishini emas, balki bolalarning psixik va aqliy imkoniyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashishni nazarda tutadi⁸

Xorijiy pedagogikada ham maktabgacha ta'lim pedagogining ahamiyati juda yuqori baholanadi. Masalan, mashhur rus psixologi L.S.

⁸ Mansurova S.R. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Tosh., 2025.

Vigotskiy bola rivojlanishida kattalarning, ayniqsa pedagogning roli “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshishini ta’kidlaydi⁹. Unga ko’ra, bola mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni pedagog yordamida amalga oshiradi va shu orqali yangi bilim va ko’nikmalarni egallaydi.

Italiyalik pedagog Mariya Montessori esa tarbiyachining ahamiyatini “yo’l ko’rsatuvchi va kuzatuvchi” sifatida belgilaydi¹⁰. Uning ta’lim tizimida pedagog bolaga tayyor bilim berishdan ko’ra, uning mustaqil o’rganishi uchun sharoit yaratishi kerak. Bu yondashuv bolaning erkinligi va tabiiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Amerikalik olim Jon Dyui ta’limni ijtimoiy jarayon sifatida ko’rib, pedagogni jamiyat va bola o’rtasidagi bog’lovchi ko’prik sifatida ta’riflaydi¹¹. Uning fikricha, maktabgacha ta’limda pedagog bolalarni hayotga tayyorlashda faol ishtirok etishi va ularni amaliyotga yo’naltirilgan ta’lim orqali rivojlantirishi lozim.

Psixologik jihatdan qaralganda, tarbiyachi bola uchun ishonchli katta shaxs sifatida namoyon bo’ladi. Bolaning emotsional barqarorligi, o’z-o’ziga ishonchi va ijtimoiy ko’nikmalari ko’p jihatdan tarbiyachi bilan bo’lgan munosabatga bog’liq.

Psixolog D.B. Elkonin ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati — o’yindir va bu jarayonda pedagogning ishtirok etishi bolaning ijtimoiy rollarni anglashida muhim ahamiyat kasb etadi⁷. Demak, tarbiyachi o’yinni to’g’ri tashkil etish orqali bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Tarbiyavchining ahamiyati nafaqat alohida bola, balki jamiyat uchun ham muhimdir. Chunki maktabgacha ta’lim muassasalarida

⁹ Выготский Л.С. *Мышление и речь*. — Москва: Педагогика, 1982.

¹⁰ Montessori M. *The Absorbent Mind*. — New York: Holt, 1967.

¹¹ Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 1938.

tarbiyalangan bolalar kelajakda jamiyatning faol a'zolariga aylanadi. Shu bois tarbiyachining mehnati strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;

pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vaqillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;

o'z malakasini oshirishi;

o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart ekanligi belgilab berilgan (39- modda)¹². Bu esa davlat darajasida ham tarbiyachining roli yuqori baholanishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentabrdagi PF-152-sonli Farmoni¹³da maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining shaxsiy fazilatlarini, kasbiy bilimlari va malaka, ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga oid bir qancha amalga oshirili zarur bo'lgan vazifalar belgilandi. Mazkur Farmonda barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni uzluksiz kasbiy mahoratini oshirishga doir malaka

¹² 2019-yil 16-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-152-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7128182>

oshirishning “Metodik mahorat soati” va “Metodik mahorat kuni” tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 8 iyuldagi 423- son “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori¹⁴da maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy fazilatlarini, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalariga doir minimal talablar belgilab berildi. Kasbiy standart bolani rivojlantiruvchi dasturlari hamda pedagogik va psixologiya sohasida to‘plangan tajribalardan kelib chiqqan holda qo‘yidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

bolani sifatli parvarish qilish, rivojlantirish va tarbiyalash uchun muhit yaratish;

har bir bolaning o‘ziga xosligini his – to‘yg‘ularini va fikrlarini qabul qilish;

ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash; inklyuziv ta’limni tashkil etishdagi mas’uliyatni anglatish;

interfaol metodlarni qo‘llash, qiziquvchanlik va izlanishlarni rag‘batlantirish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali bolaning ta’limiy faoliyatiga yordam berish;

bolalar bilan bog‘liq o‘zaro ijtimoiy munosabatlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish lozimligi belgilab berildi.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishi lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata olishi, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak. Yosh

¹⁴ <https://lex.uz/docs/7618066>

avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalar dan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqida quyidagi xususiyatlar aks etishi kerak.

- Nutqning aniqligi.
- Nutqning irodaviyligi hamda nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi), vulga rizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlar da rasmiy nutqda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining ahamiyati beqiyosdir. U bolaning intellektual, axloqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. O'zbek va xorijiy olimlar fikrlari ham buni tasdiqlaydi.

Tarbiyavchi — bu faqat ta'lim beruvchi emas, balki bola shaxsini shakllantiruvchi, uning kelajagini belgilashda ishtirok etuvchi muhim mutaxassisdir. Shuning uchun tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi, bilim darajasi va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari va ularning turlari

Pedagogik kompetensiyalar — bilimlar, malaka va ko‘nikmalar hamda o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan majmuini o‘zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko‘nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o‘z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachiik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta‘limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo‘ydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta‘lim tashkilotini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetent lik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

“Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma‘nolarni bildiradi.

Demak, biror-bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

Kompetentlik - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi.

Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni nam oyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ayrim adabiyotlarda esa, Kompetensiya – bu muayyan ko'nikma va malakalar yig'indisi (tayyorgarlik), kompetentlik esa ushbu bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Uompetensiya “nimani bilishni anglatsa”, kompetentlik “qanday qilish” va natiga erishish mahoratini ko'rsatadi. Kompetensiya – bu bilimlar bazasi, kompetentlik – bu bilimlarni amaliy natijasi sifatida aytish mumkin. Kompetentli mutaxassis – bu nafaqat ko'p narsani biladigan, balki shu bilimlarni ish joyida samarali qo'llab, natija beradigan shaxsdir.

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965-yil, Massachutes universite ti) tomonidan taklif

etilgan “kompetensiya” atamasining umumiy ma’nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo’yicha Bern shahrida bo’lib o’tgan simpoziumda (1996-yil) “kompetensiya” tushunchasi “o’quv”, “kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv e’tirof etildi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko’rsatish ko’nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vaziri falarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo’lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko’zga tashlanadi. Ular o’zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog’lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o’z vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to’g’ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo’llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo’llash;

informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig’ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o’rinli, samarali foydalanish;

kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tan qidiy, ijodiy yondashish, o’zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish etish;

innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKM boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to’g’ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo’lishda o’z ustida ishlash, o’z-o’zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari o’zini o’zi tahlil qilish va o’zini o’zi baholash orqali aniqlanadi. O’z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o’zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo’lida amaliy harakatlarni tashkil etishi. O’z ustida ishlash quyidagilarda ko’rinadi

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish¹⁵.



Tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyati ning o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'la di. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Tarbiyachi-pedagogning kompetentligi komponentlari

¹⁵ X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o'quv qo'llanma / Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.



Ayrim adabiyotlarda, Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi — bu uning maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir deb ta'rif berilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy faoliyatda ularni qo'llay olishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilgan.

O'zbek olimi M.X. Toxtaxo'jayeva ta'kidlaganidek, pedagogning kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, u bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligida namoyon bo'ladi¹⁶ - deb ta'kidlaydi.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi bir nechta muhim komponentlardan iborat:

¹⁶ Toxtaxo'jayeva M.X. *Педагогика назарияси*. — Тошкент: Фан ва технология, 2019.

1. Pedagogik kompetensiya. Bu tarbiyachining ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. U zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llay olishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

N.G'. Nurmuxamedova fikriga ko'ra, maktabgacha ta'lim pedagogining asosiy vazifasi bolalarning bilish faolligini rivojlantirish va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirishdan iborat¹⁷ - deb e'tirof etadi.

2. Psixologik kompetensiya. Bu komponent bolalar psixologiyasini tushunish, ularning emotsional holatini anglash va to'g'ri pedagogik munosabat o'rnatishni nazarda tutadi.

L.S. Vigotskiy ta'lim jarayonida pedagogning roli bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni aniqlash va uni rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi¹⁸.

3. Kommunikativ kompetensiya. Tarbiyachining bolalar, ot-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Jon Dyui ta'limni ijtimoiy jarayon sifatida baholab, pedagog muloqot orqali bolaning ijtimoiy tajribasini boyitishini qayd etgan.

4. Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi. Zamonaviy sharoitda tarbiyachi axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilishi zarur. Bu bolalar uchun qiziqarli va interaktiv ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi.

5. Ijodiy kompetensiya. Tarbiyachi har bir mashg'ulotga ijodiy yondashishi, bolalar qiziqishini oshiradigan usullarni topa bilishi lozim. Mariya Montessori ta'kidlaganidek, bolaning rivojlanishi uchun erkin va rag'batlantiruvchi muhit yaratish pedagogning muhim vazifasidir..

¹⁷ Нурмухамедова Н.Ф. *Мактабгача педагогика асослари*. — Тошкент: Ўқитувчи, 2018.

¹⁸ Выготский Л.С. *Мышление и речь*. — Москва: Педагогика, 1982.

Kasbiy kompetensiya faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki tarbiyachining shaxsiy sifatlari bilan ham bogʻliq. Ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- bolalarga mehr va gʻamxoʻrlik;
- sabr-toqat va stressga chidamlilik;
- masʼuliyat va intizom;
- adolatlilik va samimiylik;
- oʻz ustida ishlashga intilish.

D.B. Elkonin taʼkidlashicha, bola shaxsining rivojlanishi kattalar bilan muloqot jarayonida amalga oshadi, shuning uchun pedagog shaxsi alohida ahamiyatga ega.

N.A. Muslimov tarbiyachi (umuman pedagog) kasbiy kompetensiyasini kompleks tizim sifatida qarab, uni bir nechta tarkibiy qismlarga ajratadi: “Kasbiy kompetentlik ijtimoiy, shaxsiy, texnologik va maxsus kompetensiyalar yigʻindisidan iborat”¹⁹. Bu yerda tarbiyachi nafaqat bilimli, balki: ijtimoiy faol, oʻzini rivojlantira oladigan, zamonaviy texnologiyalarni biladigan, mutaxassis boʻlishi kerakligi taʼkidlangan.

B. A. Nazarova kasbiy kompetentlikni yanada aniqlashtirib, uni quyidagi turlarga ajratadi: “Kasbiy kompetentlik: maxsus, ijtimoiy, autokompetentlik va ekstremal kompetentliklardan iborat”²⁰. Bu qarashga koʻra tarbiyachi: kasbiy bilimga ega (maxsus), jamoada ishlay oladi (ijtimoiy), oʻzini rivojlantiradi (autokompetentlik), qiyin vaziyatlarda ham toʻgʻri qaror qabul qiladi (ekstremal).

M. Vahobov kompetensiyaga quyidagicha taʼrif beradi: “Kompetensiya – egallangan bilim va koʻnikmalarni amaliy faoliyatda

¹⁹ Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy qismlari // Lingvospektr ilmiy jurnali. – 2022. – <https://lingvospektr.uz/index.php/Ingsp/article/view/97>

²⁰ Nazarova B.A. *Pedagogik kompetentlik turlari va ularning mazmuni* // Lingvospektr ilmiy jurnali. – 2022. – <https://lingvospektr.uz/index.php/Ingsp/article/view/97>

qo'llay olish layoqati" dir²¹. Bu ta'rifga ko'ra tarbiyachining asosiy mahorati — bilimni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatidir.

Tarbiyachi o'z kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak. Bu quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- malaka oshirish kurslarida qatnashish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish;
- ilmiy-amaliy seminar va konferensiyalarda ishtirok etish;
- tajriba almashish va mustaqil o'qish.

O'zbekistonda qabul qilingan ta'lim standartlari ham pedagoglardan uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya talab etiladi. U pedagogik bilimlar bilan birga psixologiya, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarini ham yaxshi bilishi zarur. Tarbiyachi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi kerak.

Shuningdek, tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu esa bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ota-ona va tarbiyachi o'rtasidagi uzviy aloqa bolaga nisbatan yagona yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi maktabgacha ta'lim sifatini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. U pedagogning bolalar bilan samarali ishlashi, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi hamda har bir bolaning individual rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiya tarbiyachining pedagogik, psixologik, kommunikativ, axborot-kommunikatsiyaviy va ijodiy kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

²¹ Vahobov M. *Pedagogik kompetensiya va uning mohiyati* // ResearchGate. – 2023. – <https://www.researchgate.net/publication/386992754>

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir kompetensiya turi tarbiyachining kasbiy faoliyatida o'ziga xos vazifani bajaradi: pedagogik kompetensiya ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qilsa, psixologik kompetensiya bola ruhiyatini tushunish imkonini beradi. Kommunikativ kompetensiya ota-onalar va bolalar bilan samarali muloqotni ta'minlaydi, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi esa zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rivojlantiradi. Ijodiy kompetensiya esa mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shu bilan birga, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi doimiy ravishda rivojlanib boruvchi tizim bo'lib, u malaka oshirish, mustaqil o'qish, tajriba almashish va reflektiv faoliyat orqali takomillashib boradi. Demak, tarbiyachining yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasi bolalarning har tomonlama rivojlanishi va maktabga muvaffaqiyatli tayyorlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarbiyachining kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari va zamonaviy talablar

Ko'plab pedagog olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlarini, tarkibiy qismlarini ajratib olganlar va o'rganib chiqqanlar.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

-O'qish o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik; bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun birorbir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

V.V.Bashevning fikricha, kompetentliklar–insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

N.G.Vigotkovskiyning fikriga ko'ra, kompetentlik – qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning eng asosiy yo'li — malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash tizimida ishtirok etishdir. Bu jarayonda tarbiyachi pedagogika, psixologiya, innovatsion texnologiyalar bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'ladi. Pedagogning kasbiy o'sishi uzluksiz ta'lim orqali amalga oshadi va bu uning faoliyatida sifat o'zgarishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, tarbiyachi ilmiy-uslubiy seminarlar, konferensiyalar va treninglarda ishtirok etish orqali o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, pedagogning ilmiy-uslubiy faoliyati uning kasbiy mustaqilligi va ijodiy yondashuvini

shakllantiradi. Bu jarayon unga ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi interaktiv doska, multimedia materiallar, ta'limiy dasturlar va onlayn platformalardan foydalanishni bilishi kerak. Bundan tashqari, ta'limiy dasturlar va mobil ilovalar bolalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tarbiyachi ushbu dasturlarni tanlashda ularning yoshga mosligi, xavfsizligi va ta'limiy ahamiyatiga e'tibor qaratishi kerak. Rivojlantiruvchi o'yinlar, testlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali bolalar bilimni o'yin shaklida egallaydi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

Onlayn platformalardan foydalanish ham katta imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta'lim sharoitida bu ayniqsa muhim. Tarbiyachi turli platformalar orqali topshiriqlar berishi, videodarslar tashkil qilishi, ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Shuningdek, onlayn resurslar pedagogning o'zi uchun ham katta manba bo'lib xizmat qiladi – u yangi metodikalarni o'rganadi, tajriba almashadi va o'z malakasini oshiradi.

AKTdan foydalanishning yana bir muhim jihati – individuallashtirilgan ta'limni tashkil etishdir. Har bir bola o'z qobiliyati va tezligiga qarab topshiriqlarni bajarishi mumkin. Raqamli vositalar orqali bolalarning bilim darajasi monitoring qilinadi va natijalarga qarab moslashtirilgan yondashuv qo'llaniladi.

Shu bilan birga, AKTdan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, texnik vositalarning yetishmasligi, internet sifati pastligi yoki pedagoglarning raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi. Shuning uchun tarbiyachi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi,

yangi texnologiyalarni o'rganishi va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur. Ular yordamida ta'lim jarayoni yanada samarali, qiziqarli va natijador bo'ladi. Tarbiyachi esa bu vositalardan to'g'ri va o'rinli foydalanishni bilgan holda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda tajriba almashish muhim o'rin tutadi. Tarbiyachi ochiq mashg'ulotlar o'tkazish va boshqa pedagoglarning darslarini kuzatish orqali o'z ish uslubini takomillashtiradi. Bu esa, pedagogik mahorati amaliyot jarayonida shakllanadi va tajriba almashish bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi⁴.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning yana bir muhim yo'llaridan biri — mustaqil o'qishdir. Tarbiyachi pedagogika, psixologiya va metodikaga oid adabiyotlarni o'rganishi, ilmiy maqolalarni tahlil qilishi zarur.

Refleksiya esa — pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini baholashidir. Bu orqali u keyingi ish faoliyatini yaxshilaydi.

Tarbiyachi jamoada ishlash orqali boshqa pedagoglar bilan tajriba almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi. Bu uning kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kasbiy kompetensiya faqat bilim bilan emas, balki shaxsiy sifatlar bilan ham bog'liq. Shuning uchun tarbiyachi stressga chidamlilik, sabr-toqat, empatiya va mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining loyihaviy faoliyati - bu tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (muammo "tug'dirish", ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tajribalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) rivojlantiruvchi ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan biridir. va mantiqiy fikrlash; maktabgacha ta'lim

tashkilotining uslubiy faoliyati davomida va malaka oshirish kurslarida olgan bilimlarini birlashtiradi. Loyiha faoliyatining maqsadi - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat uchun sharoit yaratish, tarbiyachilar tomonidan kasbiy faoliyatda olingan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish. Tarbiyachilar tomonidan loyihalarni ishlab chiqish uchun mavzular, mini-loyihalar faoliyatning ijodiy yo'nalishiga qarab mustaqil ravishda tanlanadi. Faoliyatning yakuniy bosqichida taqdimot o'tkaziladi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Seminar - ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O'yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi. Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari, maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl

ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi: Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi maktabgacha ta'lim sifatini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Uning yuqori darajada shakllangan kompetensiyasi bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularning maktabga tayyorligi va kelajakda muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir tarbiyachi o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashi zarur.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan bir nechta tavsiyalarni berib o'tamiz. Jumladan,


- ❖ “Sun'iy intellekt kuzatuvchisi” bilan dars tahlili – darsni AI tizimi tahlil qilib, pedagogga individual tavsiyalar beradi.
- ❖ VR-dars simulyatsiya laboratoriyasi – tarbiyachi virtual sinfda turli murakkab vaziyatlarni mashq qiladi.
- ❖ “Jim dars” metodi – nutqsiz, faqat imo-ishora va vizual vositalar orqali dars o'tish.
- ❖ Mikro-dars tiktok formatda tahlil – 1–3 daqiqalik dars lavhalari orqali kasbiy tahlil.
- ❖ “Kelajakdan xat” usuli – pedagog o'z kelajakdagi “ideal o'zi”dan maslahat oladi (refleksiya texnikasi).
- ❖ Ssenariysiz dars (improv teaching) – oldindan rejasiz dars o'tish mashqlari.
- ❖ “Teskari mentorlik” – yosh o'quvchilar katta pedagoglarga raqamli texnologiyalarni o'rgatadi.
- ❖ “Bir kun — bir metod” chellenji – har kuni yangi o'qitish usulini sinab ko'rish.
- ❖ “Bir fan — 3 uslub” eksperimental dars – bir mavzuni uch xil metodda bir kunda o'tish.

❖ “Pedagogik improvizatsiya teatri” – o‘quv vaziyatlarini sahnalashtirish.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi: - kasbiy BKMni takomillashtirib borish; - faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; - kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; - ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; - salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarini o‘zlashtirish.



Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish; - faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi²².

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'zini o'zi baholash (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi

O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin

²² [3.-PEDAGOGIK-KASBIJ-KOMPETENTLIK.pdf](#)

shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. O'zini o'zi samarali baholash omillari:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi. O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishidir.

Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovlarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. Ta'lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish tarbiyachidan innovatsion fikrlash uslubi, ijodiy qobiliyat rivoji, keng dunyoqarash, estetik va nutq madaniyatiga yuqori darajada egalikni talab etadi.

1. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarbiyachining bola rivojlanishidagi o'rnini qanday ahamiyatga ega?
3. Nima uchun maktabgacha ta'limda tarbiyachi yetakchi shaxs hisoblanadi?
4. Tarbiyachi bolalarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?
5. Kasbiy kompetensiya nima va u tarbiyachi faoliyatida qanday namoyon bo'ladi?
6. Tarbiyachining asosiy kasbiy kompetensiyalari qaysilar?
7. Pedagogik, kommunikativ va metodik kompetensiyalar o'rtasida qanday farq bor?
8. Tarbiyachining kompetensiyalari bolalar bilan ishlash jarayonida qanday ahamiyatga ega?
9. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?
10. Zamonaviy ta'lim tizimi tarbiyachilardan qanday yangi talablarni qo'yimoqda?

TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Reja:

1. Pedagogik mahorati tushunchasi va tarkibiy qismlari
2. Pedagogik mahoratni rivojlantirishning psixologik va metodik asoslari
3. Pedagogik mahoratni rivojlantirishning zamonaviy usul va texnologiyalari
4. Tarbiyavchining emotsional-irodaviy holatini boshqarish

Tayanch iboralar:

kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, metodik tayyorgarlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), tarbiyaviy faoliyat, refleksiya va integrativ sifat, metodika integratsiyasi, model, amaliy qobiliyat.

Pedagogik mahorati tushunchasi

Maktabgacha ta'lim inson shaxsiyati shakllanishida muhim bosqich bo'lib, bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga asos yaratadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining pedagogik mahorati muhim o'rin tutadi, chunki aynan u bolaning ilk bilim va tarbiyani qabul qilishida yo'l boshchi bo'ladi.

Pedagogik mahorat — bu nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar majmui, balki bolalar psixologiyasini chuqur tushunish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda ta'lim tarbiyada innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish qobiliyatidir.

Ushbu fikrga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, pedagogik mahorat haqiqatan ham faqat bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmaydi. Menimcha, zamonaviy pedagog tarbiyalanuvchini ichki dunyosini tushuna olishi, uning psixologik holatini to'g'ri baholashi juda muhimdir. Chunki har bir bola individual yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogining ishini yanada sifatli qiladi. Bugungi kunda raqamli ta'lim vositalarisiz samarali mashg'ulot tashkil etish qiyinlashib bormoqda. Innovatsion yondashuvlar esa bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Men pedagogik mahoratni doimiy rivojlanib boradigan jarayon deb hisoblayman. Tarbiyachi-pedagog o'z ustida ishlamasa, zamon talablariga javob bera olmaydi. Shu sababli pedagog har doim izlanishda bo'lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat – bu bilim, psixologik tushuncha va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashgan tizimidir.

Pedagogik mahorat tushunchasiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar.

Pedagogik mahorat - o'qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi²³.

Tarbiyachi pedagog maktabgacha ta'lim tashkilotida barkamol avlodni tarbiyalash ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati, muloqoti bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, o'zining kasbiy pedagogik

²³ Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т.: «ИQTISODMOLIYA» нашриёти, 2010,-312 бет.

mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida ta'lim va tarbiya berish, har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalashga hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkuri ravon nutqi, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ilmiy-ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni muntazam oshirib borish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, internet tarmog'laridan samarali foydalan olishi, ilg'or xorijiy davlatlarning o'quv dasturlaridan xabardorligi juda muhimdir.

O'zbek olimlarining pedagogik mahorat haqidagi qarashlari

A.X. Mavlonov pedagogik mahoratni o'qituvchining kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etishga imkon beruvchi integrativ sifat sifatida izohlaydi. Uning fikricha: "pedagogik mahorat – bu fanni chuqur bilish, metodik tayyorgarlik va shaxsiy madaniyat uyg'unligidir" - deb ta'riflaydi²⁴. Mavlonov qarashida pedagogik mahorat "uchlik model"ga asoslanadi: bilim (fan), metodika hamda shaxsiy fazilat muhimligi e'tirof etadi.

Muallif fikrimizcha, mazkur yondashuv pedagogik mahoratning kompleks tabiatini ochib beradi, chunki o'qituvchining samarali faoliyati faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki metodik tayyorgarlik va shaxsiy sifatlar uyg'unligi bilan ta'minlanadi.

N. Azizxo'jayeva pedagogik mahoratni innovatsion pedagogik faoliyat qobiliyati bilan bog'laydi. Uni ta'kidlashicha, zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim muhitni yaratuvchi shaxsdir – deb ta'riflaydi. Uning qarashida asosiy urg'un: innovatsiya, faol ta'lim muhiti shuningdek o'quvchi faolligi muhimligi aytiladi²⁵.

Bizningcha, mazkur qarash zamonaviy ta'lim talablariga to'liq mos keladi, zero bugungi kunda o'qituvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki

²⁴ Mavlonov A.X. Pedagogika va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2012.

²⁵ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.

ta'lim muhitini tashkil etuvchi va o'quvchi faolligini rag'batlantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda.

U. Mahkamov pedagogik mahoratni kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qiladi ya'ni pedagogik mahorat – bu kasbiy kompetensiyalarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishidir. Bu yerda “mahorat” = “kompetensiya + amaliy faoliyat” pedagogning mahorati ekanligini ta'kidlaydi²⁶.

Muallif fikrimizcha, kompetensiyaviy yondashuv pedagogik mahoratni amaliy jihatdan baholash imkonini beradi, chunki u nazariy bilimlarning amaliyotda qay darajada qo'llanilayotganini aks ettiradi.

Rus olimlaridan V.A Slastyonin pedagogik mahoratni quyidagicha izohlaydi:bu o'qituvchining kasbiy bilim, pedagogik texnika va shaxsiy fazilatlar birligi ekanligini hamda uning modelining asosi sifatida pedagogik texnika, shaxsiy madaniyat hamda professionallik ekanligini ta'kidlaydi²⁷.

Bizning nazarimizda, mazkur ta'rif pedagogik mahoratning an'anaviy modelini to'liq ifodalaydi va o'qituvchi shaxsidagi kasbiy bilim, texnika va shaxsiy sifatlar uyg'unligini asosli ravishda yoritadi.

I.A. Zimnyaya pedagogik mahoratni kommunikativ va kompetentlik asosidagi tizim sifatida ko'radi. U pedagogning asosiy vazifasi – kommunikatsiya orqali bolalarda kompetensiya shakllantirish muhimligi hamda mashg'ulot jarayonida kommunikatsiya, kompetensiya hamda bola faolligi ta'minlash zarur ekanligini e'tirof etadi²⁸.

Muallif fikrimizcha, kommunikativ yondashuv pedagogik jarayonda o'quvchi faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki samarali muloqot ta'lim natijadorligini belgilaydi.

²⁶ Mahkamov U. Kasbiy kompetensiya asoslari. – Toshkent, 2021.

²⁷ Слостёнин В.А. Педагогика. – Москва, 2010.

²⁸ Зимняя И.А. Ключевые компетенции в образовании. – Москва, 2015.

YE.B.Bondarevskaya pedagogik mahoratni gumanistik pedagogika bilan bog'laydi. Uning fikri: pedagogik mahorat – bu shaxsni qadrlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir deb o'z fikrini bildiradi²⁹.

Bizningcha, gumanistik yondashuv pedagogik mahoratning insonparvarlik mohiyatini ochib beradi va ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Xorijiy olimlardan, Lee Shulman pedagogik mahoratni “pedagogical content knowledge (PCK)” “O'qitishga oid mazmunli bilimlar” konsepsiyasi orqali tushuntiradi. O'qituvchi faqat fanni emas, uni qanday o'qitishni ham bilishi kerak ya'ni, fan + metodika integratsiyasi hamda PCK modeli orqali o'z faoliyatini olib borish kerakligini bildiradi³⁰. Muallif fikrimizcha, PCK konsepsiyasi pedagogik mahoratning eng muhim jihatlaridan birini — fan va metodika integratsiyasini ilmiy asosda tushuntirib beradi.

John Hattie pedagogik mahoratni ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ko'radi. Uning tadqiqotiga ko'ra: o'qituvchining faoliyati “Ilmiy dalillar asosida o'qitish” hamda uning “Samaradorlik natijasi” eng kuchli omillaridan biridir- deb ma'lumot taqdim etadi³¹. Bizning nazarimizda, mazkur yondashuv pedagogik faoliyatni baholashda obyektivlikni ta'minlaydi, chunki u ta'lim natijalarini ilmiy dalillar asosida tahlil qilishga asoslanadi.

David C. Berliner pedagogik mahoratni ekspertlik darajasiga erishish jarayoni sifatida qaraydi. U ekspert o'qituvchi tez qaror qabul qiladi va vaziyatni to'g'ri baholashi shart deb ta'kidlaydi³². Muallif fikrimizcha, pedagogik mahoratni ekspertlik nuqtai nazaridan talqin qilish o'qituvchining kasbiy rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

²⁹ Бондаревская Е.В. *Гуманистическая педагогика*. – Ростов-на-Дону, 2016.

³⁰ Shulman L. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Harvard Educational Review, 1986.

³¹ Hattie J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. – London: Routledge, 2009.

³² Hargreaves A., Fullan M. *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School*. – New York: Teachers College Press, 2012.

Andy Hargreaves pedagogik mahoratni hamkorlik va professional jamoa madaniyati bilan bog'laydi. Pedagog yakka emas, balki jamoada rivojlanadi – deb ta'kidlaydi. Bizningcha, pedagogik mahoratni jamoaviy hamkorlik bilan bog'lash zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashuvi va kasbiy o'sishida muhim omil hisoblanadi.

2000 yildan keyingi ilmiy adabiyotlarda pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha evolyutsiya qilgan:

- An'anaviy yondashuv → kasbiy bilimlar;
- Kompetensiyaviy yondashuv → amaliy qobiliyat;
- Zamonaviy yondashuv → innovatsiya + raqamli pedagogika + insonparvarlik.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yangilanish jarayonlari kechmoqda, bunda ta'lim sifatini oshirish va tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish asosiy e'tibor markazida turibdi. Pedagogik mahoratni shakllantirishda interfaol o'qitish metodlari, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va tarbiyachilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar zamonaviy ta'lim yondashuvlariga mos ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Pedagogik mahoratni rivojlantirishning dolzarbligi shundaki, har bir bola individual rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, unga mos ta'lim metodikasini tanlash tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liq. Shu boisdan, zamonaviy ta'lim tizimida individual yondashuv, kompetensiyaviy model va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiyaviy faoliyat samaradorligini ta'minlashda tarbiyachining pedagogik mahorati hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan mazkur sifat tarbiyachining bolalar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ta'lim-

tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishi hamda tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi pedagogik mahoratga ega bo'lgan tarbiyachilar bolalarning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday mutaxassislar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim jarayonining natijadorligini oshiradi, shuningdek, har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirish asosida uning imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, ular ota-onalar hamda kasbiy jamoa bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtiradi.

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ta'lim sohasida raqobat muhiti keskin ortib bormoqda. Bu esa pedagog kadrlardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik mahoratni shakllantirish nafaqat shaxsiy kasbiy rivojlanish, balki ta'lim tizimi sifatini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantirish masalasi ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonni samarali tashkil etishda bir qator yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ya'ni interfaol metodlar, STEAM ta'lim va loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogdan faqat an'anaviy bilimlarga ega bo'lish emas, balki ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, bolalarga individual yondashish va turli pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan qarorlar qabul qilish talab etilmoqda. Shu sababli, tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantirish uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon sifatida baholanadi.

Pedagogik mahorat muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Jumladan, L.S. Vygotsky bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab berib, tarbiyachi va bola o'rtasidagi hamkorlikning kognitiv rivojlanishga ta'sirini ilmiy jihatdan yoritgan.

Shuningdek, A.N. Leontiev pedagogik faoliyatda motivatsiya va refleksiya muhim o'rin tutishini ta'kidlab, o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati uning kasbiy o'sishida muhim omil ekanligini ko'rsatgan.


Bundan tashqari, Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan ko'p intellekt nazariyasi har bir bolaning individual o'qish uslubini hisobga olish imkonini berib, ta'lim jarayonini tabaqalashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, psixologik tayyorgarlik va innovatsion yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishi zarur.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini

puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi.



Pedagogik mahorat ko'p komponentli, yaxlit tizim bo'lib, u pedagogning kasbiy bilimlari, shaxsiy fazilatlar va amaliy ko'nikmalari uyg'unligini anglatadi. Bu tizim o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi va boshqarishini ta'minlaydi.

- **Pedagogik ma'naviyati:**

Pedagog bolani sevishi, kasbiga sadoqati, pedagogik odob-axloq qoidalariga rioya qilishi va kasbiy burchini his etishi.

- **Kasbiy bilimdonlik (bilim va eruditsiya):** Pedagogning o'z fanini (predmetini), pedagogika, psixologiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur bilishi.
- **Pedagogik qobiliyat:** Pedagoglarning ruhiyatini tushunish, ularga individual yondashish, pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ijodiy yondashish (kreativlik).
- **Pedagogik texnika:** Pedagog o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, nutq madaniyati (ovozi, diksiyasi), mimika va pantomimika (tana harakatlari)dan unumli foydalanib, ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatish san'ati.
- **Pedagogik muloqot madaniyati:** O'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali, samimiy va o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabat o'rnatish.
- **Pedagogik takt (nazokat):** Pedagogik munosabatlarda meyorini bilish, pedagogik nizolarni to'g'ri hal etish va o'quvchi shaxsini hurmat qilish.
- **Refleksiya:** Pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini anglash va kasbiy mahoratini mustaqil oshirib borish qobiliyati. Ushbu komponentlar o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi va pedagogning yuksak kasbiy salohiyatini belgilaydi. Pedagogik mahorat bir-biri bilan uzviy bog'langan bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ularning har biri pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, kasbiy bilimlar pedagogning o'z yo'nalishini chuqur egallaganligini aks ettirsa, metodik mahorat ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIDJI

Reja:

1. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy imiji
2. Pedagogik odob va kasbiy axloq meyorlari
3. Pedagogik nazokat va muloqot madaniyati

Tayanch iboralar:

zamonaviy tarbiyachi imiji, kasbiy etika, pedagogik odob, pedagogik nazokat, muomala madaniyati, kommunikativ kompetensiya, pedagogik madaniyat, nutq madaniyati, shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat, professional imij, pedagogik muloqot, empatiya, tolerantlik, o'zini tutish madaniyati, refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish.

Zamonaviy tarbiyachining kasbiy imiji

Zamonaviy tarbiyachining o'zini namoyon etuvchi mezonlardan biri uning imiji hisoblanadi. Imij - u o'zida yetarli darajada his-tuyg'uga bezalgan obyekt to'g'risidagi axborotni qamrab oladi va aniq ijtimoiy munosabat tasavvurini yuzaga keltiradi. Shaxslarga munosabatlarga e'tibor berganimizda, har bir shaxs o'z munosabatidan kelib chiqib o'z imijini aks ettiradi. Shu bois munosabat doirasida ularni "imij qadriyat funksiyalari" deb keltirdik. Imijologiya – har bir insonni jozibador bo'lishga va insonlarga yorug'lik ulashishga chaqirish. Imijologiya – ta'sir ko'rsatish texnologiyasi. Insonlarga ta'sir ko'rsatishning 2 usuli mavjud. "Ishontirish usuli" va "Yoqish usuli". Ulardan so'ngisi samaraliroq (Blez Paskal). Imij qandaydir sintetik siymo bo'lib, aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir. Tarbiyachi

imiji ta'lim muassasasi imijiga ta'sir etadi. Shaxsni yuksaltirish imiji - ijobiy imij tufayli shaxsning siymosi uning ma'naviy xislatini namoyon etadi, vizual tarzda uning eng yaxshi xususiyatlari moddiy tarzda gavdalanadi hamda uning individual o'ziga xosligi ko'rinadi. Psixologik jozibador xususiyatga ega shaxs, insonlar e'tibori va hurmatiga muqarrar, unga bu bioenergetik quv vat to'ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo'ladi.

Tarbiyachi o'zining maqsadlariga erishish sari optimist va o'ziga ishonchi mavjud bo'lishi kerak. "O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasi"ning 4 ta asosiy texnologik jihatlar mavjud:

1.Kognitiv jihat – tarbiyachining o'zini anglash darajasi, o'z imkoniyatlari, kuchli va zaif tomonlarini bilishi, maqsadlarini aniq tasavvur qilishi.

2.Emotsional (affektiv) jihat – o'ziga ishonch, ijobiy kayfiyat, optimizm, o'z hissiyotlarini boshqara olish va boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

3.Xulq-atvor (behavioral) jihat – tashqi ko'rinish, nutq madaniyati, muomala uslubi, o'zini tutish va jamoadagi o'rni orqali o'zini namoyon qilish.

4.Refleksiv jihat – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini ko'ra bilish, o'zini rivojlantirish ustida ishlash va o'z taqdimotini doimiy takomillashtirib borish.

“Tarbiyachining o'zini taqdim etish jarayoni kognitiv, emotsional, xulq-atvor va refleksiv jihatlarning uzviy uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu jihatlarning har biri alohida ahamiyat kasb etsada, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda tarbiyachining kasbiy qiyofasini shakllantiradi. Ayniqsa, o'zini anglash, o'ziga ishonch, to'g'ri muomala va doimiy o'z-o'zini tahlil qilish tarbiyachining samaradorligini oshiradi. Shu bois, zamonaviy tarbiyachi nafaqat bilimli, balki o'zini

to'g'ri namoyon qila oladigan, refleksiv fikrlaydigan va ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan shaxs bo'lishi zarur."

Shaxsning o'zini samarali namoyon etishi va boshqalarga ta'sir ko'rsatishi uchun uning Imij texnologik funksiyalari juda muhim sanaladi. Ularni quyidagicha keltirish mumkin:

1. **Axborot beruvchi funksiya** – imij orqali shaxs haqida dastlabki tasavvur shakllanadi, ya'ni uning kasbi, mavqei, qadriyatlarini haqida ma'lumot uzatiladi.

2. **Kommunikativ funksiya** – imij muloqotni osonlashtiradi, odamlar o'rtasida tezkor va samarali aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

3. **Ta'sir ko'rsatuvchi (pragmatik) funksiya** – boshqalarning fikri, munosabati va xulqiga maqsadli ta'sir etish imkonini beradi.

4. **Motivatsion funksiya** – ijobiy imij shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uni yanada faol bo'lishga undaydi.

5. **Himoya (psixologik) funksiyasi** – imij shaxsni salbiy baholardan qisman himoya qiladi va noqulay vaziyatlarda o'zini tutishga yordam beradi.

6. **Moslashuv (adaptiv) funksiyasi** – turli ijtimoiy muhit va vaziyatlarga tez moslashishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, imij faqat tashqi ko'rinish emas, balki u shaxsning jamiyatdagi o'rnini va samarali faoliyat yuritishida muhim texnologik vosita hisoblanadi.

Imidjning texnologik funksiyalari shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va samarali faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot beruvchi, kommunikativ, ta'sir ko'rsatuvchi, motivatsion, himoya va moslashuv funksiyalari orqali imidj insonning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning ichki salohiyatini ham namoyon etadi. Mening fikrimcha, zamonaviy tarbiyachi yoki mutaxassis uchun imidjni ongli ravishda shakllantirish juda zarur, chunki u kasbiy muvaffaqiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. To'g'ri shakllangan imidj

insonga ishonch bag'ishlaydi, atrofdagilar bilan samarali munosabat o'rnatishga yordam beradi va uning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Imij yaratishda PR (Public Relations – jamoatchilik bilan aloqalar) texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Ular shaxs yoki tashkilot haqida ijobiy tasavvur shakllantirish va uni boshqarishga xizmat qiladi.

Quyida asosiy PR texnologiyalarini tushunarli tarzda keltiraman:

1. Axborot tarqatish texnologiyasi. Bu orqali shaxs yoki tashkilot haqida ijobiy ma'lumotlar ommaga yetkaziladi (maqolalar, intervyular, chiqishlar). Maqsad — to'g'ri va ijobiy obraz yaratish.

2. Media bilan ishlash (media relations). Televideniye, radio, internet nashrlar bilan hamkorlik qilish orqali imijni mustahkamlash. Ommaviy axborot vositalari orqali keng auditoriyaga chiqiladi.

3. Tadbirlar tashkil etish (event PR). Konferensiya, seminar, uchrashuv, taqdimotlar orqali ijobiy taassurot uyg'otish. Bunday tadbirlar jonli muloqot imkonini beradi.

4. Brending texnologiyasi. Shaxsiy yoki tashkilot brendini yaratish: nom, uslub, qadriyatlar, tashqi ko'rinish orqali yagona imijni shakllantirish.

5. Imijni boshqarish (reputatsiya menejmenti). Salbiy fikrlar va muammoli vaziyatlarni to'g'ri hal qilish, ijobiy obro'ni saqlab qolish va mustahkamlash.

6. Raqamli PR (digital PR). Ijtimoiy tarmoqlar, saytlar va onlayn platformalar orqali imij yaratish va rivojlantirish. Hozirgi davrda eng samarali yo'nalishlardan biri.

Xulosa: PR texnologiyalari imidj yaratishning zamonaviy va ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Ular orqali shaxs yoki tashkilot o'zini jamoatchilikka maqsadli va tizimli ravishda taqdim eta oladi. Mening fikrimcha, bugungi kunda ayniqsa raqamli PR imkoniyatlaridan to'g'ri

foydalanish imidjni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyat fikri ko'p jihatdan axborot makonida shakllanadi.

Tarbiyatchi imjini shakllantirish jarayoni ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u avvalo ijtimoiy muhit, kasbiy faoliyat xususiyatlari hamda jamoaviy talablar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachi o'z imjini yaratishda faoliyat yuritayotgan muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi, shu bilan birga jamoaning umumiy imjiga moslashgan holda faoliyat yuritishi lozim. Biroq, mazkur jarayonda shaxsning individualligi va takrorlanmas xususiyatlarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Imjni samarali shakllantirishda AIDA modeli (Attention – e'tibor, Interest – qiziqish, Demand – ehtiyoj, Action – harakat) alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tarbiyachining auditoriyaga ta'sir ko'rsatish mexanizmini ifodalaydi. Ushbu model asosida tarbiyachi avvalo o'ziga e'tibor jalb qiladi, so'ngra qiziqish uyg'otadi, ehtiyojni shakllantiradi va nihoyat, muayyan harakatga undaydi.



Zamonaviy tarbiyachi imjining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi: kiyinish madaniyati, ma'naviy madaniyat, muloqot madaniyati, o'zini tutish madaniyati. Shu bilan birga, intellektual salohiyat, bilimdonlik, ijobiy xulq-atvor va sog'lom turmush tarzi ham muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyatchining kasbiy imjini rivojlantirish uning kompetentlik darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiya komponentlari orqali namoyon bo‘ladi:

- ✓ huquqiy kompetentlik;
- ✓ boshqaruv kompetentligi;
- ✓ axborot kompetentligi;
- ✓ kommunikativ kompetentlik;
- ✓ psixologik-pedagogik kompetentlik;
- ✓ tashkilotchilik kompetentligi;
- ✓ kreativ kompetentlik;
- ✓ innovatsion kompetentlik;
- ✓ iqtisodiy-moliyaviy kompetentlik.

Mazkur kompetensiyalar yig‘indisi tarbiyachining kasbiy siymosini shakllantiradi va uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi imjini shakllantirish tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan jarayon bo‘lib, u shaxsiy sifatlar, kasbiy kompetensiyalar hamda ijtimoiy muhit ta‘sirida rivojlanadi.

Pedagogik odob va kasbiy axloq meyorlari

Pedagogik odob. Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan turmush sharoiti ning alohida tarzi, an‘analari negizida odamlar o‘rtasida paydo bo‘lgan muomalamunosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomalamunosabatlari ham deb qaraladi. Pedagog odobi umumin soniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta‘lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta‘lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta‘lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida

namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir. Pedagog odobi, eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi.

Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyo qarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi shunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi, jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi, o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshirila digan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normalari, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi. Tarbiyachi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarini o'zlashtirib olishi, tajribada

qo'llashi, o'zining dunyo qarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natiijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular tarbiyachining dunyoqarashi, fikr va mu lo hazalari bilan qo'shib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallim ning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylani shi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar tarbiyachining mashg'ulotlari jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, ota-onalar bilan muomala-munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt tarbiyachi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Tarbiyachi xulqining natijalari uning yosh larga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ular ni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi.

Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar tarbiyachi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ta'lim oluvchilarga yaxshilik qilish, tarbiyachi burchi, tarbiyachilik sha'ni, qadr-qimmat, tarbiyachilik mas'uliyati, tarbiyachilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, tarbiyachining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar tarbiyachi axloqining muhim fazilatlaridir. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak tarbiyachi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nazokat va muloqot madaniyati

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha pedagog xodimlarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib bori shi ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shili shiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi pedagog xodimlar oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik xodim jamoalari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir pedagog xodim, o'z faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta'sirida amalga oshiradi. Tarbiyachining mahoratini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib, ularning birligi, izchilligini ta'minlash lozim. Chunki ularning birining o'zgarishi, ta'biy holda ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi. Natijada pedagogik mahorat to'laqonli mazmunga ega bo'lmay, uni egallash qiyin bo'lib qolishi mumkin.

Pedagogik nazokat – bu tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyliligi, nazokati va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z mutaxassisligini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, yosh avlodga bilim berish, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning qulay yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, tarbiyachi insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirishi lozim. Shuni alohida qayd qilib

o'tmoq zarurki, tarbiyachilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafiligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, bola bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati us tida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachidan pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Pedagogik nazokat (takt) pedagogik jarayonda shakllanadigan va rivojlanadigan murakkab kasbiy-psixologik sifatlar majmuasidir. Pedagogik jarayon esa o'z mohiyatiga ko'ra shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, uni mehnat va ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan tizimli faoliyat bo'lib, u davlat, jamiyat va kelajak avlod oldida mas'uliyatli mutaxassislarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagog shaxsi yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar birligiga ega bo'lishi talab etiladi.

Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday fazilatlar qatoriga mustahkam e'tiqod va dunyoqarash, ijtimoiy faollik, yuksak ma'naviyat, axloqiy barkamollik, fuqarolik burchini anglash, insonparvarlik, talabchanlik va adolatparvarlik kabi xususiyatlar kiradi. Shuningdek, qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, muloqotga kirishuvchanlik hamda huquqiy madaniyatning shakllanganligi pedagogning shaxsiy kamoloti va kasbiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nazokat tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakatlari meyorini, ta'sir ko'rsatish chegarasini va vaziyatga mos ravishda eng maqbul usulni tanlay olish qobiliyatini ifodalaydi. U pedagogik ta'sirning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib,

o'qituvchining muloqot madaniyati, psixologik sezgirligi va kasbiy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari pedagog shaxsining kasbiy imkoniyatlarini kengaytirsa-da, haqiqiy ustoz darajasiga erishish uchun ularni amaliy faoliyatda doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Bu esa pedagogik fikrlashni, ya'ni ta'limiy vaziyatlarni tahlil qilish, ularning sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash, qabul qilingan qarorlarni baholash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, pedagog muntazam ravishda o'z faoliyati natijalarini reflektiv tahlil qilib borishi, mavjud tajribani yangi pedagogik yondashuvlar bilan taqqoslashi va eng samarali usullarni tanlashga intilmog'i lozim. Pedagogik muammolarni aniqlash va ularni hal etishning optimal yo'llarini izlash ham pedagogik nazokatning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining insonparvar va demokratik tamoyillarga asoslanishi pedagog oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularda ongli intizomni shakllantirish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish pedagogdan nafaqat chuqur bilim va yuqori malakani, balki yuksak axloqiy sifatlarni ham talab qiladi.

Shu jihatdan qaraganda, pedagogik nazokat o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishida, ularga individual yondashuvni ta'minlashda va ijobiy psixologik muhit yaratishda asosiy kasbiy qobiliyatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik nazokat pedagogning kasbiy yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u shaxsiy fazilatlar, kasbiy bilim va amaliy tajribaning uzviy birligi asosida shakllanadi hamda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

-
1. Zamonaviy tarbiyachining kasbiy imiji deganda nimani tushunasiz?
 2. Kasbiy imij tarbiyachi faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
 3. Tarbiyachining tashqi ko'rinishi va ichki madaniyati o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
 4. Zamonaviy tarbiyachi imijini shakllantiruvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
 5. Pedagogik odob nima va u nima uchun muhim?
 6. Kasbiy axloq meyorlari tarbiyachi faoliyatida qanday rol o'ynaydi?
 7. Pedagogik odob buzilganda qanday oqibatlar yuzaga kelishi mumkin?
 8. Tarbiyachi o'z kasbiy axloqini qanday saqlab turishi kerak?
 9. Pedagogik nazokat deganda nimani tushunasiz?

TARBIYACHI-PEDAGOG FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV

Reja:

1. Kreativ yondashuv tushunchasi va uning mohiyati
2. Tarbiyachi pedagog faoliyatida kreativlikning ahamiyati
3. Xorijiy va MDH davlatlari tajribasida kreativ pedagogika

Tayanch iboralar:

Kreativlik, kreativ yondashuv, ijodkorlik, innovatsion faoliyat, multimediya, axborot texnologiya, mustaqil fikrlash, muammo, faraz, kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat, intellektual, ijodiy salohiyat.

Kreativ yondashuv tushunchasi va uning mohiyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Tizimida faoliyat yuritayotgan

pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi. Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, , pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda.

“Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. Kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud. Sharqliklar kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni deb tushunadilar. Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin. Birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega.

Kreativ yondashuv — bu muammolarni hal qilishda, yangi g'oyalar yaratishda va faoliyatni tashkil etishda an'anaviy qoliplardan chiqib, yangicha fikrlash va innovatsion usullardan foydalanish qobiliyatidir. U insonning ijodiy fikrlashi, tasavvuri va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari bilan bog'liq.

Psixologiya va pedagogikada kreativlik “yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish qobiliyati” sifatida ta'riflanadi.

Pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday


maslahat beradi. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdir. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta'lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi. Multimedia – bir necha ko'rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli,

musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha hisoblanadi. Ammo ulardan har xil mazmundagi ta'limiy faoliyatga oid ishlanmalar ishlab chiqish mumkin. Bular ham kreativlikning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Tarbiyachining kreativligi — bu uning bolalar bilan ishlash jarayonida yangicha g'oyalar topa olish, noodatiy usullarni qo'llash va ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli tashkil eta bilish qobiliyatidir. Ayniqsa maktabgacha ta'limda kreativ yondashuv bolalarning fikrlashi, tasavvuri va ijodkorligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachining kreativligi, avvalo, uning mashg'ulotlarni bir xil qolipda emas, balki rang-barang va interaktiv tarzda o'tkazishida namoyon bo'ladi. Masalan, oddiy tushuntirish o'rniga rolli o'yinlar, sahnalashtirish, rasmlar chizish yoki qo'l mehnati orqali bolalarga bilim berish samaraliroq bo'ladi. Bu esa bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kreativ yondashuvning asosiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:



Kreativ yondashuv faqat ijod sohasida emas, balki ta'lim, boshqaruv, iqtisod va kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

N. Sayidov fikriga ko'ra, kreativlik — bu shaxsning yangi g'oyalar yaratishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qobiliyatidir. U ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi³³ - деб таъкидлайди.

B. Qodirov kreativlikni shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatining uyg'unlashgan ko'rinishi sifatida baholaydi³⁴.

Kreativ tarbiyachi har bir bolaga individual yondashadi. U bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos metodlarni tanlaydi. Natijada har bir bola o'zini erkin his qiladi va o'z fikrini bemalol ifoda eta oladi. Shuningdek, kreativlik tarbiyachining muammoli vaziyatlarda tez va samarali yechim topishida ham ko'rinadi. Masalan, bola darsga qiziqmayotgan bo'lsa, tarbiyachi vaziyatni o'zgartirib, yangi o'yin yoki faoliyat turi orqali uni jalb qilishi mumkin. Tarbiyachining kreativligini rivojlantirish uchun u doimo o'z ustida ishlashi kerak. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish, tajriba almashish, kitoblar o'qish va treninglarda qatnashish bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Dj. Guilford kreativlikni “divergent fikrlash” bilan bog'laydi, ya'ni bir muammoga bir nechta yechim topish qobiliyati³⁵ – deb ta'kidlaydi.

E. Torrens esa kreativlikni muammolarni sezish, gipotezalar ilgari surish va ularni tekshirish jarayoni sifatida ta'riflaydi³⁶.

K. Rodjers fikriga ko'ra, kreativlik — bu shaxsning o'zini erkin ifoda etishi va ichki imkoniyatlarini namoyon qilishidir³⁷ – deb e'tirof etadi.

Kreativ tarbiyachi qo'l mehnati va ijodiy faoliyatlarga katta e'tibor beradi. Rasm chizish, plastilin bilan ishlash, turli materiallardan buyumlar yasash orqali bolalarning mayda motorikasi va ijodkorligi

³³ Sayidov N. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. o'quv qo'llanma – Toshkent, 2018

³⁴ Qodirov B. Pedagogik psixologiya asoslari. darslik– Toshkent, 2005.

³⁵ Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. ilmiy monografiya — New York: McGraw-Hill, 2000.

³⁶ Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT). — Princeton, NJ: Personnel Press, 1974.

³⁷ Rogers, C. R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin, 1999.

rivojlanadi. Yana bir muhim jihat — muhitni kreativ tashkil etish. Guruh xonasini rang-barang, did bilan bezatish, tematik burchaklar yaratish (tabiat, kasblar, ertak qahramonlari) bolalarning qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, kreativ yondashuv ijobiy psixologik muhit yaratadi. Qiziqarli mashg'ulotlar, o'yinlar va erkin muloqot bolalarda quvonch, ishonch va faol ishtirokni shakllantiradi.

Tarbiyachi pedagog faoliyatida kreativlikning ahamiyati

Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachi-pedagog shaxsi va uning faoliyatiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglardan faqat bilim berish emas, balki bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish talab etilmoqda. Bu esa o'z navbatida tarbiyachida kreativlik, ya'ni yangicha fikrlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyati bo'lishini taqozo etadi.

Kreativlik — bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noan'anaviy yechim topish va faoliyatga ijodiy yondashish qobiliyatidir. Tarbiyachi-pedagog faoliyatida kreativlik nafaqat ta'lim sifatiga, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachi-pedagog faoliyatida kreativlik quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

1. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda Kreativ tarbiyachi mashg'ulotlarni qiziqarli, interaktiv va bolalar yoshiga mos tarzda tashkil etadi. Bu esa bolalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

2. Bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda Kreativ yondashuv orqali bolalar: mustaqil fikrlay boshlaydi; savol berishga o'rganadi; yangi g'oyalar ilgari suradi.

3. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda; Pedagog faoliyatida turli vaziyatlar yuzaga keladi. Kreativlik tarbiyachiga: vaziyatga mos yechim topish; bolalar bilan samarali ishlash; noodatiy holatlarni to'g'ri boshqarish imkonini beradi.

4. Individual yondashuvni ta'minlashda; Har bir bola individual shaxs hisoblanadi. Kreativ pedagog bolaning qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda ishlaydi.

5. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashda; Kreativ tarbiyachi multimediya, axborot texnologiyalari va zamonaviy metodlardan samarali foydalanadi. Bu ta'lim sifatini yanada oshiradi.

Kreativlikni amalda qo'llash maktabgacha ta'limda quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Ijodiy mashg'ulotlar. Rasm chizishda bolalarga erkin mavzu berish:

“O'zingiz o'ylab topgan qahramonni chizing”.

2. Rolli o'yinlar. “Shifoxona”, “Do'kon”, “Sayyohat” kabi o'yinlarda bolalar mustaqil ssenariy yaratadi.

3. Muammoli savollar. “Agar yomg'ir bo'lmasa, tabiatda nima o'zgaradi?” Bu bolalarni fikrlashga undaydi.

4. Konstruktorlik faoliyati. “Kelajak uyini yasang” kabi topshiriqlar bolalar tasavvurini rivojlantiradi.

5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Video, multfilm va interaktiv o'yinlar orqali mashg'ulotlarni qiziqarli qilish.

Kreativ yondashuvda tarbiyachining asosiy vazifasi — bolaga "to'g'ri javob"ni berish emas, balki uni "nega?" va "qanday qilib?" deb o'ylashga undashdir.

Shu bilan birga, bolalar xato qilishdan qo'rqmaydigan erkin muhit yaratish, bir mashg'ulotda ham rasm, ham matematika, ham nutq o'stirishni birlashtirish ya'ni integratsiya qilish juda ham muhim.

Bolalar bilan kichik muammolarni birgalikda hal qilish (masalan: "Qorboboni erib ketmasligi uchun qanday qutqaramiz?") bu orqali bolalarda fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu yo'nalishda quyidagi tavsiyalarni ham qo'shish mumkin:

Avvalo, muammolarni bolalar hayotiga yaqin va qiziqarli qilish muhim. Masalan: "Gullar nega so'lib qoldi va ularga qanday yordam beramiz?" yoki "Yo'qolib qolgan o'yinchoqni qanday topamiz?" kabi savollar bolalarni faol o'ylashga undaydi.

Shuningdek, bolalarga tanlash imkoniyatini berish kerak. Masalan, bir muammoni hal qilish uchun bir nechta variantlar taklif qilib, ulardan qaysini tanlashni bolalarning o'ziga qoldirish. Bu ularda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Rolli o'yinlardan foydalanish ham juda samarali. Bolalarni "qutqaruvchi", "shifokor", "muhandis" kabi rollarga kiritib, muammoni o'sha rol nuqtai nazaridan hal qilishni taklif eting. Bu nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Ko'rgazmali materiallar va tajribalar qo'shish ham yaxshi natija beradi. Masalan, "Qorboboni saqlash" mavzusida muz, suv va issiqlik bilan kichik tajriba o'tkazish orqali bolalarga sabab-oqibatni ko'rsatish mumkin.

Guruhda ishlashni tashkil etishga e'tibor bering. Kichik guruhlarga bo'lib, har biri o'z yechimini taklif qilsin, keyin barchasi birgalikda muhokama qilib, eng yaxshi variantni tanlasin. Bu hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi.

Natijani baholashda esa to'g'ri yoki noto'g'ri javobdan ko'ra, bolaning fikr yuritishi, ishtirok etishi va harakatini qo'llab-quvvatlash muhim. "Juda yaxshi o'ylading", "Qiziq fikr aytding" kabi ijobiy munosabat bolani yanada faollashtiradi.

5–6 yoshli katta guruh bolalari uchun muammoli-ta’limiy faoliyat

Mavzu: “Qorboboni qutqaramiz” (tabiat va tajriba)

Maqsad: bolalarda sabab-oqibatni tushunish, tajriba qilish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat. Tarbiyavchi bolalarga aytadi: “Qaranglar, Qorbobo issiq xonada turibdi va u erib ketyapti. Uni qanday saqlab qolamiz?” Bolalar o‘z fikrlarini aytadi (sovuq joyga qo‘yish, muzlatgichga solish, soyaga yashirish va h.k.).



Kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh muz bo‘lagi bilan tajriba qiladi (quyoshda, soyada, idishda). Natijalarni taqqoslash. Qaysi usul samarali bo‘lganini birgalikda xulosa qilishadi va bolalar bilan o‘zaro savol javob qilinadi.

Mavzu: “Yo‘qolgan o‘yinchoqni topamiz” (mantiqiy fikrlash).

Maqsad: diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. “Bizning guruhdagi sevimli o‘yinchoq yo‘qolib qoldi. Uni qanday topamiz?”. Bolalardan oxirgi marta qayerda ko‘rilganini so‘raladi. “Iz qidiruvchi”

o‘yini (belgilar, izlar, yo‘l-yo‘riqlar orqali) va ularga xarita yoki rasmlari yo‘llanma beriladi. O‘yinchoq topiladi va bolalar o‘z fikr yuritish jarayonini aytib beradi.



Mavzu: “Ko‘prik quraylik” (qurilish va ijodkorlik)

Maqsad: jamoada ishlash va ijodiy yechim topish. “Quyuncha daryodan o‘ta olmayapti. Unga qanday yordam beramiz?”. Bolalar turli materiallar (kubiklar, karton, tayoqchalar) bilan ishlaydi. Kichik guruhlarda ko‘prik loyihasi yaratiladi. Ko‘prik mustahkamligini tekshiriladi va o‘yinchoq o‘tkaziladi. Oxirida eng mustahkam va qulay ko‘prik muhokama qilinadi.



Mavzu: “Gullarga yordam beramiz” (ekologiya va g‘amxo‘rlik)

Maqsad: tabiatga mehr va mas‘uliyat hissini shakllantirish. “Gullarimiz so‘lib qolyapti. Nima qilishimiz kerak?”. Bolalar sabablarni taxmin qiladi (suv yo‘q, quyosh yetishmaydi va h.k.) . Gullarga suv quyish, quyoshga qo‘yish Kuzatish kundaligi (rasm chizish orqali) amalga oshiriladi. Gullarni parvarish qilish qoidalarini birgalikda chiqarish uchun bir birlari bilan o‘zaro suhbat tashkil etiladi.



Mavzu: “To‘g‘ri yo‘lni top” (yo‘l harakati va xavfsizlik)

Maqsad: xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish. “Bola uyiga yetib olishi kerak, lekin yo‘lda ko‘p to‘siqlar bor”. Yo‘l maketi bilan ishlash. “Qaysi yo‘l xavfsiz?” muhokamasi qilinadi. Svetofor va belgilarni qo‘llaniladi. To‘g‘ri yo‘l tanlanadi va sabablari tushuntiriladi.



Kreativ tarbiyachi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

ochiq fikrlilik, tashabbuskorlik,

empatiya, tolerantlik,

mas'uliyatlilik, o'z ustida ishlash qobiliyati

Bu sifatlar pedagogning professional faoliyati samaradorligini oshiradi. U ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tarbiyachi doimiy ravishda o'z ustida ishlab, kreativ yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Kreativlikka ega pedagoggina kelajak avlodni raqobatbardosh, mustaqil va innovatsion fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalay oladi. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi-pedagogning kreativligi bolalarning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Kreativlik — bu faqat yangi g'oyalar o'ylab topish emas, balki ta'lim jarayonini bola ehtiyojlari, qiziqishlari va individual xususiyatlariga mos holda tashkil eta olish qobiliyatidir.

Pedagogik nuqtai nazardan, kreativ tarbiyachi ta'lim jarayonida an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmaydi, balki muammoli vaziyatlar, tadqiqot faoliyati, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar orqali bolalarni faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, “Qorboboni qutqaramiz”, “Ko'prik quraylik” kabi mashg'ulotlar bolalarni mustaqil fikrlashga, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga va jamoada ishlashga o'rgatadi.

Xorijiy va MDH davlatlari tajribasida kreativ pedagogika

Kreativlik XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sotsiologlar, psixologlar va o'qituvchilar tomonidan faol o'rganib kelinmoqda. Zamonaviy psixologik lug'atda kreativlik "insonning fikrlash, his-tuyg'ular, muloqot, individual faoliyat turlarida namoyon bo'ladigan, shaxsni butunligicha yoki uning individual jihatlari, faoliyat mahsulotlari, ularni yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydigan ijodiy salohiyati (qobiliyatlari)" deb ta'riflanadi. Pedagogik lug'atda kreativlik ijodiy iste'dod darajasi, shaxsning nisbatan barqaror xususiyatini tashkil etuvchi ijod qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Professional pedagogikada kreativlik ijodiy bo'lish, yangi narsani qabul qilish va yaratish, standartlardan tashqarida fikrlash va ko'plab original va foydali g'oyalarni yaratish qobiliyati sifatida qaraladi. Shaxsning kreativligi uning o'zgarishga, stereotiplardan voz kechishga tayyorligini belgilaydi va noaniqlik sharoitida murakkab muammolarga original yechimlarni topishga yordam beradi; bu shaxsning jamiyatda o'zini muvaffaqiyatli aniqlashga yordam beradigan ichki resursidir.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga ko'ra, samarali tarbiyachi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

Ijodkor va moslashuvchan — vaziyatga qarab yangi usullarni qo'llay oladi.

Bolalarga yo'naltirilgan — har bir bolaning qobiliyati va qiziqishini inobatga oladi.

Muammo qo'ya oluvchi — tayyor javob bermasdan, bolani fikrlashga undaydi.

Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratuvchi — xatolarni rivojlanish qismi sifatida qabul qiladi.

Kommunikativ — bolalar bilan erkin va samarali muloqot qiladi. Bunday tarbiyachi bolalarda “o‘rganishga qiziqish”ni shakllantiradi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalar rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi:

1. Kognitiv rivojlanish. Muammoli vaziyatlar bolalarda tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Ijodiy fikrlash. Ochiq savollar va bir nechta yechimli topshiriqlar bolalarda divergent fikrlashni rivojlantiradi, ya’ni bir muammoga turli yechimlar topish qobiliyati shakllanadi.

3. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Guruhda ishlash jarayonida bolalar hamkorlik, bir-birini tinglash va hurmat qilishni o‘rganadi. Bu ijtimoiy-emotsional rivojlanishning muhim qismi hisoblanadi.

4. Mustaqillik va ishonch. Bolalar o‘z fikrini bildirish va qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu ularda o‘z-o‘ziga ishonch va mas’uliyat hissini oshiradi.

Kreativ tarbiyachi — bu bilim beruvchi emas, balki bolaning fikrlash jarayonini boshqaruvchi va rag‘batlantiruvchi shaxsdir. U yaratgan ijodiy muhitda bola faqat bilim olib qolmaydi, balki mustaqil fikrlaydigan, muammolarni hal qila oladigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha ta’limda kreativ



yondashuvni qo‘llash — bolalarning kelgusi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bo‘lishining muhim poydevoridir.

Xo‘sh, endi xorijiy va MDH davlatlarida

kreativlik pedagogikasi bilan tanishib chiqsak. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng samarali modellardan biri hisoblanadi. Bu yerda: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, erkin o'quv muhiti, loyiha va tadqiqot faoliyati asosiy o'rin tutadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Finlyandiya kreativlikni rivojlantirish uchun o'quv jarayonida: muammoli vaziyatlar, reflektiv tahlil hamda mustaqil izlanish keng qo'llaniladi.

AQSH va Yevropa mamlakatlarida kreativ pedagogika ko'pincha STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi orqali amalga oshiriladi. STEAM ta'lim: fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, bolalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, real hayotga yaqin muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Shuningdek, bu yondashuv bolalarda: ijodiy qobiliyat, kommunikativ ko'nikmalar hamda jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.




Shvetsiyada (maktabgacha ta'limda PBL — loyihaga asoslangan ta'lim): Project-Based Learning (PBL) usuli qo'llaniladi, unda bolalar mustaqil ravishda tadqiqot mavzularini tanlaydilar. Masalan, “Shahar” mavzusini o'rganayotganda bolalar karton qutilardan shahar maketini yasashlari, ko'chadagi odamlardan intervyu olishlari va o'z “do'kon”larini tashkil qilishlari mumkin. Bu jarayon ularda loyiha tuzish, ijodiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Italiya (Redjo-pedagogika): Bu yondashuv bolada “o‘zini ifoda etishning yuzta tili” bor degan ishonchga asoslanadi (rasm chizish, loydan yasash, raqs, teatr va boshqalar). Bola barcha jarayonlarda o‘zini ifoda etadi.



Reggio pedagogikasining asosiy maqsadi bu tillarni cheklamaslikdir. Pedagog esa bilimni tayyor holda beruvchi emas, balki bolalar uchun ijodiy muhit yaratib beruvchi va jarayonni yo‘naltiruvchi fasilitator hisoblanadi.

Reggio Emilia yondashuvida muhit – uchinchi o‘qituvchi deb hisoblanadi (birinchi – ota-ona, ikkinchi – pedagog)



Reggio pedagogikasida o‘quv muhitiga alohida e‘tibor qaratiladi. Sinf xonasi yoki bog‘cha faqat bi nodan iborat emas; u bolaning fikrlashi, o‘rganishi va o‘zini ifoda etishiga ilhom beruvchi makon bo‘lishi kerak. Yorug‘lik, ranglar, tabiiy materiallar, ochiq maydonlar – bularning barchasi “Uchinchi o‘qituvchi” sifatida xizmat qiladi. Muhit doimo o‘zgaruvchan va bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda moslashtiriladi. Shu bilan birga ushbu yondashuvda bolalar, ularning oilalari va mahalliy hamja miyatining madaniyati va kontekstini aks ettiradi. Asosiy e‘tibor yoqimli estetika, mehmondo‘st va iliq muhit hamda bolalarning san‘at asarlari va loyihalari namoyishi etadigan burchaklar tashkil etilishiga qaratilgan. Har bir bola barcha o‘quv materiallariga oson kirish imkoniyatiga ega.

MDH davlatlarida (Rossiya, Qozog‘iston, Belarus va boshqalar) so‘nggi yillarda kreativ pedagogikaga alohida e‘tibor qaratilayotgani kuzatilmoqda. Bu davlatlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan, interaktiv metodlar, raqamli ta‘lim hamda loyiha va tadqiqot faoliyati keng joriy etilmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta‘limda o‘yin faoliyati asosiy metod sifatida saqlanib qolgan. MDH davlatlarida ham STEAM texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv: bolalarning kognitiv rivojlanishini oshiradi, ijodiy fikrlashni shakllantiradi hamda muammo yechish qobiliyatini kuchaytiradi.

Rossiya (TRIZ-pedagogika): Maktab va maktabgacha ta‘lim tizimida Ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi (TRIZ) faol qo‘llaniladi. Bu metod bolalarga qarama-qarshiliklarni noodatiy va



ijodiy usullar bilan hal qilishni o'rgatadi, shuningdek, ularning tasavvuri va tizimli fikrlashini rivojlantiradi.

Qozog'iston (kreativ ta'lim): Ijodiy yo'nalishdagi mutaxassisliklarni rivojlantirish va ta'lim platformalarini joriy etish orqali talabalarga o'z shaxsiy loyihalarini yaratish imkoniyati beriladi. Bu esa kasbiy ta'lim doirasida ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.



Belarus (yangi texnologiyalarni joriy etish): Oliy ta'lim muassasalarida kreativ pedagogika elementlari, xususan muammoli ta'lim usullari qo'llanilib, bo'lajak mutaxassislarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, xorijiy metodikalar mahalliy ta'lim standartlariga moslashtirilmoqda.

Xorijiy va MDH davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, kreativ pedagogika maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Kreativ pedagogikaning yaratilishi pedagoglarni — bu ta'lim jarayonini shunday tashkil etish tizimiki, u o'quvchi yoki bolada mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va

muammolarni yangi usullarda hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kreativ pedagogika quyidagi asosiy elementlar sifatida, Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning) bu elementda bolalar yoki talabalarga tayyor javob berilmaydi, balki muammo qo'yiladi. Ular mustaqil ravishda yechim topishga harakat qiladi. Masalan: "Gullar nega so'ladi?" yoki "Qorboboni qanday saqlaymiz?" kabi savollar. Shuningdek, tadqiqot faoliyati bolalarda kichik tadqiqotlar olib boradi, kuzatadi, solishtiradi va xulosa chiqaradi. Bu ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ijodiy o'yin va rolli faoliyat orqali o'yin orqali bolalar turli rollarga kirib, vaziyatlarni ijodiy hal qiladi. Bu ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni kuchaytiradi.

Kreativ pedagogika pedagoglar uchun quyidagi jihatlarda juda muhim:

- Zamonaviy kompetensiyani rivojlantiradi. Pedagogda innovatsion fikrlash, yangi usullarni qo'llash qobiliyati shakllanadi.
- Dars samaradorligini oshiradi. Kreativ usullar darsni qiziqarli qiladi va bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.
- Bolalar bilan ishlashni yengillashtiradi. Muammoli va o'yin texnologiyalari orqali pedagog bolalarni osonroq tushunadi va ularni faollashtiradi.
- Pedagogning ijodiy salohiyatini oshiradi. Pedagog doimiy izlanishda bo'ladi, yangi metodlar yaratadi va o'z faoliyatini takomillashtiradi. Kreativ pedagogika zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U pedagogni oddiy bilim beruvchi emas, balki ijodiy jarayon tashkilotchisiga aylantiradi. Shuning uchun har bir pedagog kreativ yondashuv usullarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Shuning uchun milliy ta'lim tizimida: ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularni milliy muhitga moslashtirish, pedagoglarning kreativ salohiyatini oshirish, ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Kreativ yondashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Kreativlik va ijodkorlik o'rtasida qanday farq va o'xshashliklar mavjud?
3. Ta'lim jarayonida kreativ yondashuvning asosiy mohiyati nimadan iborat?
4. Kreativ fikrlashni shakllantirishda qanday omillar muhim rol o'ynaydi?
5. Tarbiyachi-pedagog faoliyatida kreativlik nima uchun muhim hisoblanadi?
6. Kreativ pedagog qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak?
7. Bolalar bilan ishlash jarayonida kreativ yondashuv qanday natijalar beradi?
8. Xorijiy davlatlarda kreativ pedagogikani rivojlantirishda qanday usullar qo'llaniladi?
9. MDH davlatlarida kreativ ta'lim tizimi qanday yo'lga qo'yilgan?
10. O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanishning afzalliklari nimalardan iborat?

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Reja:

1.Mashg'ulot turlari.

2.Mashg'ulotning tuzilishi.

3.Mashg'ulotlarda tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.

Tayanch iboralar:

mashg'ulot, maktabgacha ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayoni, tarbiyachi, pedagogik faoliyat, pedagogik tayyorgarlik, mashg'ulot turlari, individual mashg'ulot, guruhli mashg'ulot, jamoaviy mashg'ulot, integratsiyalashgan mashg'ulot, didaktik maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, didaktik vositalar, ko'rgazmalilik, faollashtiruvchi usullar, o'yin metodlari, motivatsiya, qiziqtirish, bolalar faolligi, individual yondashuv, differensial yondashuv, nazorat va baholash, tahlil qilish

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOT TURLARI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta'lim bosqichiga o'tishidagi tayanch kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim davlat standartini amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Davlat o'quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi. Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va muassasalarida qo'llanilishi majburiydir:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat MTTlarida;
- ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida;
- "Mehribonlik" uylari maktabgacha ta'lim guruhlarida;

- monitoring va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir. Davlat o'quv dasturining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Davlat o'quv dasturi muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. MTT Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini qo'llash huquqiga ega.

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga

hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, otionalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi³⁸.

MTTda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillar O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi. MTT ta'limva tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish. Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

- Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

³⁸ O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/-2022., T. <file:///C:/Users/user/Downloads/Ilk%20Qadam%20Uzbek.pdf>

- Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

- Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash. MT - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo'yicha integratsiyani ta'minlash zarurligini belgillaydi.

- Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash. Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

- O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

- MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish. Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir. Ushbu tamoyillar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni davlat talablari va davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tili va chet tillaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonini o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv yili 2-sentabrda boshlanadi va 31-maygacha davom etadi. 1-iyundan 31-avgustgacha MTTda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish.

Rejalashtirish davlat o'quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismidir. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Rejalashtirish – o'quv dasturini yaratish va qo'llash jarayonining muhim qismi. O'quv rejasi - bu pedagoglarga bolaning sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlagan holda, davlat talablariga erishish, rivojlanishning asosiy va barcha sohalaridagi bolaning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim faoliyatini amalga oshirishga imkon beradigan tashkillashtirilgan va tuzilgan hujjatdir. O'quv rejasini tuzishda bolaning yoshi va individual rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish ta'lim sharoitlariga qarab o'zaro bog'liqlik, xilma-xillik va moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yil fasllari va ob-havo sharoitlarini ham hisobga olish kerak. O'quv rejasini shakllantirishda mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda 20 foizgacha bo'lgan hududiy komponent va davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan majburiy komponentning 80 foizi ko'zda tutilgan³⁹. Mavzuli reja mavzu, maqsad, mazmun va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Faoliyatni tanlashda ta'lim va tarbiya jarayonining umumiy maqsadlari bilan birga rivojlanish sohalari maqsadlari, mazmun va faoliyatining integratsiyasi ham hisobga olinadi.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadiyu Faoliyat turini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha

³⁹ "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang//Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun dasturlarni ishlab chiqish//birinchi nashr//35-bet, Toshkent//2020

maqsadlari, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi⁴⁰.

***Mashg‘ulot** ta‘lim tashkilotda bolalarga ta‘lim berishning asosiy shaklidir. **Mash‘ulot** – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir.*

Tarbiyachi bolalarga ta‘lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta‘lim berishda bosh rolni mashg‘ulot egallaydi. Mashg‘ulotlar maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘limni tashkil etish shaklidir. Ta‘lim shakli deganda ta‘lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma‘lum bir vaqtda o‘tkaziladi. Ta‘lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir xususiyatiga, o‘tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o‘rniga qarab birbiridan farq qiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta‘lim berish ishlari ekskursiya, ta‘limiy o‘yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg‘ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg‘ulot maktabgacha ta‘lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma‘lum o‘rin va vaqt ajratilgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotda bolalarni yangi

⁴⁰ O‘zb.Resp. VM 22.12.2020y. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida 802-son Qarori.

bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotning tuzilishi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. Yillik mavzuli rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuli rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuli reja maktabgacha ta'lim tashkilotining «Pedagogik kengashi»da tasdiqlanadi. Haftalik reja yillik mavzuli rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik guruhda / katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni

o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan boqqa borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin. Haftalik reja — bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar ishlanmasidan tashkil topadi. Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

titul varag'i;

guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;

ertalabki badan tarbiya kompleksi;

guruhda sentabrdan avgustgacha bo'lgan ta'lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;

haftalik ish tahlili; ilovalar;

Mashg'ulotlar konspektlarida maqsad, faoliyatning qisqacha ta'rifi, zarur jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy hususiyatga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o'zgartirilishi mumkin⁴¹.

⁴¹ O'zb.Resp. VM 22.12.2020y. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 802-son Qarori.

2-ILOVA

MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi

Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi

No	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1.	Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati, ertalabki badantarbiya	7:30 – 8:20	50
2.	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20 – 8:45	25
3.	Ertalabki davra suhbat	8:45 – 9:00	15
4.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	9:00 – 9:40	40 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa
5.	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	9:40 – 10:30	50
6.	Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	10:30 – 11:30	60
7.	Sayrdan qaytish [kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat (zarurat bo'lganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari)]	11:30 – 12:00	30
8.	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00 – 12:30	30
9.	Guruh xonasida erkin o'yin faoliyati	12:30 – 13:00	30
10.	Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu <i>Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin va tinch o'yin faoliyati, bolalar bilan individual ishlash, badiiy adabiyot o'qish</i>	13:00 – 15:00	120
11.	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00 – 15:10	10
12.	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10 – 15:30	20
13.	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	15:30 – 16:10	40 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15-20 daqiqa
14.	Erkin o'yin faoliyati	16:10 – 16:50	40
15.	Ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash	16:10 – 16:50	40
16.	Kechki davra suhbat/kun refleksiyasi	16:50 – 17:10	20
17.	Ikkinchi sayr, erkin o'yinlar	17:10 – 17:55	45
18.	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	17:30 – 18:00	30

Eslatma: Pedagog hafta mavzusiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayoni shakli (katta, kichik guruhda, individual va rivojlanish markazlarida)ni belgilaydi. Bolalarning MTTda bo'lish vaqtiga qarab hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil etishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o'zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, pedagogga ota-onalarni bolaning rivojlanishi to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilish tavsiya etiladi.

Oy mavzusi: _____
 Hafta mavzusi: _____
 Maqsad: _____

 Kun davomida foydalaniladigan resurslar: _____

 Sana: _____

TA'LIMY – TARBIYAVIY FAOLIYAT	
ERTALABKI DOIRA	Ertalabki qabul
	O'yinlar
	Bolalar bilan suhbat
	Ertalabki badantarbiya
UMUMIY GURUH BO'LIB ISHLASH (KUNNING BIRINCHI YARMI)	
Faoliyat nomi	
Maqsad	
Faoliyat nomi	
Maqsad	
RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR TANLOVI ASOSIDA HAFTALIK MAVZU BO'YICHA (mavzuli rejalashtirish) TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARI TASHKIL ETISH	
KUNNING BIRINCHI QISMIDAGI SAYR	
KUZATISH	
MEHNAT	
ASOSIY HAKAKAT TURLARINI MUSTAHKAMLASH	
HAKAKATLI O'YIN	
ERKIN O'YIN FAOLIYATI	
KUNNING IKKINCHI YARMI	
BOLALAR BILAN YAKKA ISHLASH (mutaxassislar bilan hamkorlik ishlari, rivojlantirish xaritasi bo'yicha)	
UMUMIY GURUH BO'LIB ISHLASH (KUNNING IKKINCHI YARMI)	
Faoliyat nomi	
Maqsad	
Faoliyat nomi	
Maqsad	
KECHKI DAVRA SUHBATI, O'TILGAN MAVZU TAHLILI (REFLEKSIYA)	
IKKINCHI SAYR	
ERKIN O'YINLAR	
OTA-ONALAR BILAN SUHBAT	
TAVSIYA VA KO'RSATMALAR (direktor yoki direktor o'rinbosari)	

Mazkur hujjat pedagog xodim tomonidan kun tartibidagi faoliyati to'ldiriladi, ixtiyoriy ravishda elektron (qog'oz shaklda) yoki qo'l yozma shaklda yuritiladi. Hujjat sahifalanib, tikiladi va maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Ertalabki qabul – bo‘limida bolalarni birlamchi tibbiy ko‘rikdan (filtr) o‘tkazish, bolaning sog‘lig‘i va holati haqida ota-onalardan ma‘lumot olish, davomatni belgilab qabul jarayonini yakunlash hamda bolalarning qiziqish va xohishlariga qarab ularni turli mehnat faoliyatlariga jalb etish ishlari amalga oshiriladi.

O‘yinlar – tarbiyalanuvchilarning qiziqish va istaklari hamda hafta mavzusi asosida ta‘limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli va sahnalashtirish o‘yinlari nomlari qayd etiladi.

Bolalar bilan suhbat – tarbiyachining ish jurnalida ta‘lim-tarbiya faoliyati qayd etilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi hamda uning maqsadi ko‘rsatiladi. Ertalabki qabul jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi besh mavzu bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. Dushanba – “Kelajak soati” (bolalarda milliy qadriyatlarga sadoqat, Vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilishi lozim. Pedagog suhbat davomida tarbiyalanuvchilarga ajdodlarimizning boy merosi, va an‘analarning qadriyat sifatida ahamiyatini tushuntirib, ularda milliy g‘urur va faxr tuyg‘ularini uyg‘otishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, bolalarning kelajak orzulari Vatan ravnaqi bilan chambarchas bog‘lab izohlanishi, suhbat ertak, she‘r, milliy qo‘shiqlar va hayotiy misollar orqali boyitilishi tavsiya etiladi).

2. Seshanba – “Odob-axloq qoidalari” (bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘ri so‘zlik, kamtarlik va b.q.);

3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik” (bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi).

4. Payshanba – “Yo‘l harakati qoidalarini” (bolalar ishtirokidagi yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo‘lovchi”, “Sветофор” kabi mavzularda suhbat olib boriladi).

5. Juma – “Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar va bola xayoti xavfsizligi asoslari” mavzularida (Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar mavzusida bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o‘rnatish maqsadida hamda bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi. Shuningdek, bola xayoti xavfsizligi asoslari mavzusida haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo‘lganligi sababli, bolalar uyda yolg‘iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko‘ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho‘milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to‘g‘risida suhbat o‘tkiziladi). Ta’lim-tarbiya jarayoni Oy va hafta mavzusiga ko‘ra ta’lim-tarbiya jarayoni rejalashtiriladi.

Ertalabki davra suhbat (umumiy guruh bilan) – tarbiyalanuvchilar hafta mavzusi bilan tanishtiriladi, mavzu doirasida yangiliklarni bilishlari hamda rivojlantirish markazlarda qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari yuzasidan tanishtirilib o‘tiladi. (tarbiyalanuvchilar rivojlantirish markazlarini “Mening tanlovim tablosi” orqali tanlashadi. Shuningdek, tarbiyachiga markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ota- onalar bilan ishlashi tavsiya etiladi). Umumiy guruh bo‘lib ishlash (kunning 1-qismida hamda 2-qismida) – frontal faoliyat bo‘lib, unga nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish, elementar matematika, badiiy adabiyot, savodxonlikka o‘rgatish, tabiatshunoslik va ekologiya asoslari, konstruksiyalar tuzish /applikatsiya, loy ishi, tasviriy faoliyat, xorijiy til, jismoniy tarbiya,

musiqa faoliyatlari faoliyatlar jadvaliga kiritiladi. Direktor o‘rinbosari tomonidan tarbiyachi-mutaxassislar bilan kelishgan holda, ushbu frontal faoliyatlarni olib borish vaqti ishlab chiqiladi va 1-pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Markazlardagi faoliyatlar – ta’lim faoliyati mavzuli rejalashtirish asosida tashkil etilib, har bir yosh guruhlariga uchun alohida oy va hafta mavzulari aks ettiriladi hamda beshta rivojlantirish markazlarida ta’limiy faoliyat turlari tashkil etiladi:

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi;

Til va nutq markazi;

Fan va tabiat markazi;

San’at markazi.

Namunaviy rejalashtirish berilgan markazlardagi faoliyatlarga, hudud, tuman (shahar)larning ichki imkoniyatlarini inobatga olib yoki ijodiy yondoshgan holda (asosiy oy mavzusidan chiqib ketilmaydi) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganda pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanib faoliyatda qo‘llash mumkin. Ish jurnalining sayr bo‘limi 5 qismdan iborat.

Kuzatish – ikki turdan iborat bo‘lib, jonli va jonsiz tabiatni kuzatadi. Obyektga mos bo‘lgan mehnat turini tanlashi kerak (o‘z-o‘ziga hizmat, xo‘jalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qo‘l mehnati (katta va tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladi).

Mehnat - ushbu qismda tarbiyachi maydonchada olib borilishi mumkin bo‘lgan bolalarning yoshiga mos mehnat turlarini tanlaydi. Maydonchaga chiqishda albatta mehnat qurollarini ham olib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o‘yin – jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan o‘rgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib,

asosan 1ta harakatli o‘yin rejalashtiriladi va qayd etiladi. Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irg‘itish, turli usullarda yurishda kamchiliklar bo‘lgan bolalar bilan olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo‘lsa o‘sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Ixtiyoriy o‘yinlar – bolalarning hoxish-istaklariga ko‘ra deb qayd etiladi. Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish (taxminan 13:00 dan 15:00gacha, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning uyqusiz vaqtida).

Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko‘ra tanlanadi. Pedagog xodimlarning bolalar bilan yakka tartibdagi ishlashi – pedagog xodimlar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasida aks ettirilgan indikatorlari bo‘yicha yakka tartibda ishlash tashkil etiladi va tarbiyalanuvchi o‘zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo‘yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbat o‘tilgan mavzu tahlili (refleksiya) – ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko‘nikma va malakalari (bola kompetensiyasi) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma’lumot beradi (refleksiya). Kechki soat (taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli MTT uchun) .

Ikkinchi sayrda – ixtiyoriy o‘yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi (tarbiyalanuvchining o‘zlashtirishi, ta’lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi, bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indekatori bo‘yicha (bola shaxsiga tegishli ma’lumot yakka holatda o‘tkaziladi) mavzularda). Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir

nechta ixtiyoriy o'yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to'ldiriladi⁴².

Mashg'ulotlarda tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil

⁴² O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i Maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risidagi 2025-yil "29"-avgust, 323-son buyrug'i

qilinadi. Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi. Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Davlat talablarining asosiy prinsiplari bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish muhim ekanligi qayd etilgan. Individual ta'lim — har bir bolaning yoshi, qobiliyati, qiziqishi, psixologik xususiyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.

Asosiy mazmuni:

- Bolaning individual xususiyatlarini o'rganish. (qobiliyati, temperamenti, nutqi, xotirasi, diqqati)
- Shaxsiy ta'lim trayektoriyasini belgilash. Har bir bola uchun alohida vazifa va topshiriqlar tanlanadi.
- Maxsus yordam va qo'llab-quvvatlash. Qiynalayotgan bolalar bilan alohida ishlash, iqtidorli bolalarni yanada rivojlantirish.
- Individual mashg'ulotlar tashkil etish Masalan: nutqida kamchilik bo'lgan bola bilan alohida mashqlar, matematikaga qiziqqan bolaga qo'shimcha topshiriqlar berish va ular bilan ishlash lozim. Individual ta'lim bolaning ichki imkoniyatlarini to'liq ochishga, o'z-o'ziga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Differensial ta'lim — bolalarni umumiy xususiyatlariga ko'ra, guruhlarga ajratib, ularga mos ta'lim berish jarayonidir. Asosiy mazmuni: Bolalarni guruhlash - bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi, rivojlanish tezligi kabi mezonlar asosida amalga oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur guruhlarga mos holda topshiriqlar berish mumkin.

Masalan: kuchli guruhga murakkab vazifalar,, o'rtacha guruhga standart vazifalar, qiynalayotgan bolalarga soddalashtirilgan topshiriqlar beriladi. Differensial ta'lim barcha bolalarni bir xil emasligini inobatga olib, ularning har biriga samarali ta'lim berish imkonini yaratadi. Individual va differensial ta'limning o'zaro bog'liqligi shundaki, bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi:

Individual ta'lim — har bir bolaga alohida yondashuv bo'lsa,

Differensial ta'lim — guruhlar orqali samarali ishlash imkonini beradi. Amaliyotda tarbiyachi avval bolalarni guruhlaydi (differensial), so'ngra har bir bola bilan alohida ish olib boradi (individual). Bu usullar orqali har bir bolaning imkoniyatlari hisobga olinadi va ta'lim jarayoni samaradorligi oshadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot samaradorligi, avvalo, tarbiyachining kasbiy mahorati va yetakchilik pozitsiyasiga bog'liq. Bu jarayon Maktabgacha pedagogika tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Tarbiyachining yetakchilik roli. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsi ta'lim-tarbiya jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. Uning yetakchilik roli bolaning intellektual, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yetakchilik — bu muayyan guruh faoliyatini maqsad sari yoʻnaltirish, uni tashkil etish va samarali natijalarga erishishni taʼminlash qobiliyatidir. Maktabgacha taʼlimda tarbiyachining yetakchiligi bolalar jamoasini boshqarish, ularning faolligini ragʻbatlantirish va shaxsiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlashda namoyon boʻladi.

Tarbiyachi yetakchiligi sifatida qoʻyidagilarni koʻrsatib oʻtish mumkin:

taʼlim jarayonini rejalashtiradi;

bolalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

har bir bolaga individual yondashuvni taʼminlaydi.

ijobiy psixologik muhit yaratadi;

Shu nuqtai nazardan, tarbiyachining yetakchiligi avtoritar emas, balki hamkorlikka asoslangan demokratik xarakterga ega boʻlishi lozim.

Tarbiyachining yetakchilik roli bir qator funksional yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

1. Tashkiliy funksiya

Tarbiyachi mashgʻulotlar va kun tartibini ilmiy asosda tashkil etadi. U bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda taʼlim jarayonini tuzadi.

2. Motivatsion funksiya

Bolalarni faollikka undash, ularda bilim olishga qiziqish uyg'otish tarbiyachining muhim vazifasidir. Bu jarayonda rag'batlantirish, maqtov va o'yin elementlaridan samarali foydalaniladi.

3. Kommunikativ funksiya

Tarbiyachi bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatadi. Bu esa bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Rivojlantiruvchi funksiya

Tarbiyachi bolalarning nutqi, tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

5. Refleksiv funksiya

O'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish tarbiyachining kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

Pedagogik amaliyotda tarbiyachining turli yetakchilik uslublari kuzatiladi:

Avtoritar uslub — qattiq nazorat va buyruq asosida boshqarish;

Demokratik uslub — hamkorlik va o'zaro hurmatga asoslangan;

Liberal uslub — erkinlikka ko'proq yo'l qo'yish;

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda eng samarali uslub — demokratik yetakchilik bo'lib, u bolalarda mustaqillik, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Yetakchi tarbiyachi quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim: pedagogik mahorati, sabr-toqatli, bolalarga mehr va hurmat, adolatlilik, ijodkorlik hamda mas'uliyatli bo'lishi lozim.

Bu sifatlarni tarbiyachining bolalar bilan samarali ishlashini ta'minlaydi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida bola markazli yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuvda tarbiyachi:

bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi;

uning fikrini inobatga oladi;

mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar tarbiyachining yetakchilik rolini yanada boyitadi va tarbiyachining yetakchilik roli maktabgacha ta'lim tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega. U bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Samarali yetakchilik esa tarbiyachining yuqori kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy sifatlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashga bog'liq.

Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki bolalar faoliyatini yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va tashkil etuvchi shaxsdir. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini rejalashtirish, mashg'ulot maqsadi, mazmuni va usullarini aniq belgilaydi. Bolalarni mashg'ulotga jalb qiladi, qiziqtirish orqali faollikni oshiradi.

Pedagog ta'lim jarayoni orqali bolalarni faoliyatga yo'naltirish va boshqarish lozim bu orqali bolalarning fikrlash jarayonini to'g'ri yo'naltiradi. Individual yondashuvni ta'minlash orqali esa, har bir bolaning qobiliyatini hisobga oladi. Faoliyatda nima yana bir muhim bo'lgan jig'at bu bolalarga motivatsiya berishdir. Bu esa qiziqarli usullar orqali bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Albatta faoliyat orqali bolalarni rivojlanish darajasini ham nazorat va baholash kerak. Bu orqali bolalarning o'zlashtirish darajasini kuzatadi va tahlil qiladi. Tarbiyachi mashg'ulotni samarali o'tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim.

1. Tayyorgarlik bosqichlari:
2. Mashg'ulot mavzusini tanlash
3. Maqsad va vazifalarni belgilash
4. Kerakli didaktik materiallarni tayyorlash
5. Metod va usullarni tanlash

6. Bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olish

7. Mashg'ulot strukturasi rejalashtirish

Tayyorgarlik jarayoni Didaktika qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Namuna sifatida tarbiyachi pedagoglarni mashg'ulot ishlanmasini taqdim etamiz.

Mashg'ulot ishlanmasi namunasi

(5–6 yoshli bolalar uchun, savodga o'rgatish)

Mavzu: “A” tovushi va harfi bilan tanishish

Mashg'ulot maqsadlari:

Ta'limiy maqsad:

Bolalarni “A” tovushi va harfi bilan tanishtirish.

So'z boshida “A” tovushini aniqlay olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad:

Tinglash madaniyatini shakllantirish,

O'qishga qiziqish uyg'otish,

Tartib-intizomga o'rgatish ,

Rivojlantiruvchi maqsad:

Nutqni rivojlantirish,

Fonematik eshitish qobiliyatini shakllantirish ,

Xotira va diqqatni rivojlantirishdan iborat.

Kerakli jihozlar: “A” harfi tushirilgan kartochkalar, chasmlar (anor, ayiq, alma), magnitli doska, alifbo kitobi shu bilan birga video tayyorlab uni ko'rsatish afzallikdir.

Mashg'ulotning ketma-ketligi:

1. Tashkiliy qism (2–3 daqiqa)

Bolalar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, bolalarni mashg'ulotga jalb qilish.

2. Kirish qismi (motivatsiya) (3–5 daqiqa)

Tarbiyachi rasm ko'rsatadi (masalan, anor). Savol beradi: "Bu nima?". So'zda qaysi tovush boshida kelayotganini aniqlatadi

3. Yangi mavzu bayoni (10–12 daqiqa)

"A" tovushini talaffuz qilish, unli tovush ekanligini tushuntirish /

"A" harfining yozma va bosma ko'rinishini ko'rsatish

Misol so'zlar: anor, ayiq, ota.....

4. Mustahkamlash qismi (10 daqiqa)

Didaktik o'yin: "Tovushni top". Tarbiyachi so'z aytadi

Bolalar "A" tovushi bor yoki yo'qligini aniqlaydi.

Mashq:

"A" harfini havoda chizish. Kartochkalardan topish

5. Jismoniy daqiqa (2 daqiqa)

Qisqa harakatli mashqlar. Masalan: "Ayiq qanday yuradi?"

6. Yakkunlovchi qism (3–5 daqiqa). Bolalardan savol-javob .

"Qaysi harfni o'rgandik?". Faol bolalarni rag'batlantirish

Kutilayotgan natija: Bolalar "A" tovushini taniydi . So'zlarda ajrata oladi. Harf shaklini eslab qoladi. Mashg'ulot samaradorligi tarbiyachining yetakchilik mahorati, to'g'ri rejalashtirish va bolalarga mos metodlarni tanlashiga bog'liq. To'g'ri tashkil etilgan mashg'ulot bolaning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalansa hamda bolaning ruhiyati, yosh va o'ziga xos ruhiy, fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiyaning samaradorligi ortadi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot deganda nimani tushunasiz?
2. Mashg'ulotlarning asosiy turlari qaysilar va ular qanday farqlanadi?
3. Rejali va erkin mashg'ulotlar o'rtasidagi farq nimada?
4. Mashg'ulotning tuzilishi qanday bosqichlardan iborat?
5. Kirish, asosiy va yakunlovchi qismlarda qanday vazifalar amalga oshiriladi?
6. Mashg'ulotni samarali tashkil etish uchun qanday shart-sharoitlar muhim?
7. Tarbiyachining mashg'ulot jarayonidagi yetakchilik roli nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi qanday ishlar bajaradi?
9. Bolalarning yosh xususiyatlari mashg'ulotlarni tashkil etishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
10. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mashg'ulot samaradorligini oshirishda qanday ahamiyatga ega?

TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Reja:

1. Innovatsion pedagogikaning tushunchalari.

2. Innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsion faoliyat.

3. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari. Koreya, Yaponiya, Germaniya davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimi

Tayanch iboralar:

innovatsiya, pedagogik innovatsiya, ta'limda yangilik, innovatsion jarayon, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv usullar, kreativ yondashuv, pedagogik mahorat, ta'lim samaradorligi, innovatsion muhit, bolaga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiya va ta'lim uyg'unligi, innovatsion dasturlar, xalqaro tajriba

Innovatsion pedagogikaning tushunchalari

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda an'anaviy ta'lim usullari bilan cheklanib qolish samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Shu bois innovatsion pedagogika, ya'ni ta'lim jarayoniga yangilik kiritishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion pedagogika nafaqat yangi metodlar joriy etishni, balki ta'lim mazmuni, shakli va texnologiyalarini tubdan yangilashni nazarda tutadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “innovatio” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “yangilanish”, “o'zgarish kiritish” ma'nolarini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Iqtisodchi olim Y. Shumpeterga ko'ra, innovatsiya — bu yangi kombinatsiyalar, ya'ni yangi mahsulot, texnologiya yoki bozorlarni joriy

etishdir – deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsiya faqatgina yangilik kiritish emas, balki mavjud tizimni sifat jihatdan o’zgartirishga xizmat qiladigan omildir. Ta’lim jarayonida ham innovatsiya aynan shu jihat — yangilik orqali samaradorlikni oshirish vazifasini bajaradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, V. A. Slastenin innovatsiyani ta’lim jarayoniga yangi g’oyalar, usullar va texnologiyalarni kiritish deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rif pedagogik nuqtai nazardan aniq va amaliyotga yaqin hisoblanadi. Chunki u innovatsiyani faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki ta’lim jarayoniga bevosita tatbiq etiladigan jarayon sifatida ko’radi.

O’zbek olimlaridan N. Saidhonov innovatsiyani “ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yangiliklar tizimi” sifatida izohlaydi. Demak, innovatsiya — bu faqat yangilik emas, balki samara beruvchi, amaliyotga tatbiq etiladigan yangilikdir.

Innovatsion pedagogika — ta’lim jarayoniga ilmiy asoslangan yangiliklarni joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni o’rganuvchi sohadir.

Rus olimlaridan N. R. Yusufbekova innovatsion pedagogikani “pedagogik yangiliklarni yaratish, o’zlashtirish va tarqatish jarayonlarini o’rganuvchi fan” deb ta’riflaydi. Bu ta’rif innovatsiyaning eng muhim xususiyati — tizimli o’zgarish ekanligini ko’rsatadi. Demak, ta’limda innovatsiya alohida elementlarni emas, balki butun tizimni takomillashtirishga qaratilgan bo’lishi lozim. Bu tushuncha quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

- yangi metod va texnologiyalar;
- ta’lim mazmunini yangilash;
- o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatlarni transformatsiya qilish;
- raqamli ta’lim muhitini shakllantirish.

Innovatsion pedagogikani tushunish uchun bir qator bog’liq tushunchalarni ko’rib chiqish muhim:



Yangilik — ilk bor yaratilgan g'oya yoki vosita. U hali amaliyotga to'liq joriy etilmagan bo'lishi mumkin. Yangilik ta'lim tizimining rivojlanishida boshlang'ich bosqich hisoblanadi. U orqali yangi pedagogik g'oyalar, metodlar va vositalar paydo bo'ladi. Masalan, yangi o'qitish usuli yoki raqamli platforma dastlab yangilik sifatida shakllanadi. Bu esa o'qituvchilarga ta'lim jarayonini boyitish, bir xillikdan chiqish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, yangiliklar ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yangiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni saralab olish pedagogning muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki har qanday yangilik ham samarali innovatsiyaga aylanavermaydi.

Innovatsion jarayon — bu yangilikni yaratish, sinash, joriy etish va ommalashtirish bosqichlaridan iborat jarayondir. Innovatsion jarayon ta'limda tizimli o'zgarishlarni ta'minlaydi. U orqali yangiliklar tasodifiy emas, balki rejali va ilmiy asosda joriy etiladi. Masalan, yangi

pedagogik texnologiya avval tajriba-sinovdan o'tkaziladi, so'ngra ommalashtiriladi. Bu esa ta'lim sifatida barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, innovatsion jarayon orqali ilg'or tajribalar keng tarqaladi va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik yuzaga keladi. Innovatsion jarayonni to'g'ri tashkil etish ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatini belgilaydi. Agar bu jarayon izchil bo'lmasa, yangiliklar kutilgan natijani bermasligi mumkin.

YUNESKO ta'rifiga ko'ra, pedagogik texnologiya — bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashning tizimli usulidir. Pedagogik texnologiya ta'limni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. U orqali o'qitish jarayoni aniq reja asosida amalga oshiriladi, natijalar esa baholanadi va tahlil qilinadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Chunki texnologiya qanchalik mukammal bo'lmasin, uni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Modernizatsiya — esa ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish jarayonidir. Modernizatsiya ta'lim mazmuni, shakli va usullarini yangilash orqali uning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu jarayon orqali o'quv dasturlari zamonaviy bilim va ko'nikmalarga moslashtiriladi. Shuningdek, modernizatsiya ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashni ham nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarni global mehnat bozori talablariga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Modernizatsiya uzluksiz jarayon bo'lib, u doimiy ravishda yangilanib borishi kerak. Aks holda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotidan ortda qolishi mumkin.

Shuningdek, didjitalizatsiya - ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir. Didjitalizatsiya ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi. U orqali masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, elektron darsliklar va interaktiv platformalardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa ta'limning ochiqligi va ommaviylikini ta'minlaydi. Shuningdek, didjital texnologiyalar o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Didjitalizatsiya faqat texnologiya joriy etish bilan cheklanmasligi kerak. U pedagogik maqsadlarga xizmat qilishi va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Didjital texnologiyalar haqida gap ketganda, ayni damda ulardan,

Moodle platformasi qo'llanilib kelinmoqda.



Moodle — bu masofaviy ta'limni tashkil etish uchun keng qo'llaniladigan tizim hisoblanadi. U orqali o'qituvchi o'quv materiallarini joylashtiradi, testlar o'tkazadi va talabalarning bilimlarini baholaydi. Bu esa ta'lim jarayonini masofadan turib samarali boshqarish imkonini beradi.

Google Classroom platformasi. Google Classroom — o'quv jarayonini onlayn tashkil etish, topshiriq berish va talabalar bilan muloqot qilish uchun xizmat qiladi.



Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tezkor aloqa o'rnatadi va ta'limni interaktiv qiladi.

VR texnologiyasi orqali o'quvchilar maxsus ko'zoynaklar yordamida virtual muhitga "kiradi" va o'sha muhitda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Masalan, tarix darsida qadimiy shaharlar ichida "sayohat qilish" yoki biologiyada inson tanasini 3D formatda o'rganish mumkin.

AI Artificial Intelligence (Sun'iy intellekt) asosida o'quvchining bilim darajasi, xatolari va o'qish sur'atiga qarab dars mazmunini avtomatik ravishda moslashtiradi. YA'ni har bir o'quvchi uchun individual ta'lim yo'li yaratiladi.



Innovatsiyalar ta'lim tizimiga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi: Ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning bilim olish samaradorligi ortishiga erishiladi. O'quvchi faolligining kuchayishi maqsadida interaktiv usullar orqali har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos ta'lim berish imkoni paydo bo'ladi.

Innovatsion metodlar orqali o'quvchilarda tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarini shakllanadi.

Innovatsiya tushunchasi dastlab iqtisodiyot sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sohasiga keng kirib kela boshladi. 1960–1970 yillarda AQSH va Yevropada ta'limda eksperimental metodlar qo'llanila boshlandi. Jon Dyui ta'limni amaliyot bilan bog'lash g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, J. Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasi orqali ta'limga yangi yondashuv kiritadi.


1980-yillardan boshlab innovatsion maktablar paydo bo'ldi.

V. V. Davidov va D. B. Elkoninlar rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqdilar.

O'zbekistonda esa mustaqillikdan so'ng ta'lim tizimida islohotlar boshlandi: raqamli ta'lim platformalari hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim o'z faoliyatini ko'rsatdi.

O'zbek olimlari (B. Xodjayev, Sh. Qurbonov va boshqalar) innovatsion ta'lim modellarini ishlab chiqishga hissa qo'shdilar.

Innovatsion pedagogika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:



Innovatsion pedagogikaning insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilganlik, faoliyatga asoslanganlik, tizimlilik va uzluksizlik tamoyillari ta'lim sifatiga kompleks va chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillari o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyektiga aylantiradi. Bu esa har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim berish imkonini yaratadi. Natijada bilimlar chuqurroq o'zlashtiriladi va o'quvchilarda o'qishga nisbatan ichki motivatsiya kuchayadi.

Faoliyatga asoslanganlik tamoyili esa nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. Bu orqali o'quvchilar faqat ma'lumotni yodlab qolish bilan cheklanib qolmay, uni qo'llash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy ta'lim sifati uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tizimlilik tamoyili ta'lim jarayonini izchil va mantiqiy ravishda tashkil etishni ta'minlaydi. Bu orqali bilimlar parchalangan holda emas,

balki o‘zaro bog‘liq va yaxlit tizim sifatida shakllanadi. Natijada o‘quvchilarda mustahkam bilim va kompetensiyalar vujudga keladi.

Uzluksizlik tamoyili esa ta‘limning barcha bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlab, shaxsning doimiy rivojlanishini kafolatlaydi. Bu tamoyil asosida o‘quvchi nafaqat maktab davrida, balki butun hayoti davomida bilim olishga tayyor bo‘ladi.

Yuqoridagi tamoyillarning uyg‘un holda qo‘llanilishi ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ular orqali ta‘lim jarayoni formal bilim berishdan chiqib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta‘lim raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalari

Quyidagi texnologiyalar innovatsion pedagogikaning asosini tashkil etadi:

- modulli ta‘lim
- kredit-modul tizimi
- masofaviy ta‘lim
- blended learning (aralash ta‘lim)
- STEAM ta‘lim
- case-study usuli

Innovatsion pedagogika zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U ta‘lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelajakda ta‘lim tizimi to‘liq innovatsion modelga o‘tishi kutilmoqda. Innovatsion model deganda, odatda, ta‘lim jarayonini an‘anaviy shakldan chiqarib, zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishga qaratilgan yangicha tuzilma va yondashuvlar tizimi tushuniladi. Bu faqat bitta usul yoki texnologiya emas, balki ta‘limning barcha komponentlarini (maqsad,

mazmun, metod, vosita va baholash) yangilashga qaratilgan kompleks modeldir. Bu esa o'qituvchilardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni talab etadi. Innovatsion model ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiquvchi muhim omil hisoblanadi. U orqali ta'lim jarayoni formal bilim berishdan chiqib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, mazkur modelni amaliyotga samarali joriy etish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasiga bevosita bog'liqdir.

Innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsion faoliyat.

Innovatsiyaning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u avvalo iqtisodiyot va texnologiya sohalarida paydo bo'lgan, keyinchalik ta'lim tizimiga, jumladan maktabgacha ta'limga ham kirib kelgan.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida mazkur tizimda ham innovatsion yondashuvlar jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda maktabgacha ta'limni isloh qilish jarayonida innovatsiyalar muhim o'rin egalladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar jadal joriy etilmoqda. Interaktiv doska, multimedia darslari va elektron ta'lim resurslari bolaning rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuterdan foydalanish g'oyasi va dastlabki nazariy asoslari ilk bor 1964 yilda Seymour Peypert tomonidan berilgan.

1990 -yilda Kanadada o'rgatuvchi tizim DIL asosidagi elektron kitob multimedia elementlari multifikatsiya orqali namoyish etildi.

S.V.Guryev maktabgacha ta'lim muassasalarining katta yoshdagi bolalariga ta'lim berishda kompyuter texnologiyalari samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi. 2000-yillarda meltemediya vositalari 2010-yildan esa interaktiv texnologiyalar kirib keldi.

Bu jarayonni tushunish uchun avvalo bola qanday o'rganishini ko'rib chiqish zarur.

Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, bola bilimni tayyor holda emas, balki faol harakat va tajriba orqali o'zlashtiradi.

Lev Vygotsky esa bola rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlik orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi. Demak, zamonaviy texnologiyalar aynan shu ikki asos — faollik va hamkorlikni ta'minlashi kerak. Shu nuqtadan interaktiv vositalarning ahamiyati kelib chiqadi.

Interaktiv doska — bu kompyuter va proyektor bilan bog'langan, sensor orqali boshqariladigan raqamli o'quv qurilmasi bo'lib, bolalarning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini ta'minlaydi.



Nega aynan vizual vositalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Buni ilmiy talqinini tushuntirib o'tamiz. Tadqiqotlarimiz natijasida shunga amin bo'ldiki, ta'lim jarayonida pedagoglar o'z faoliyatida ham ko'rgazmalilik va simvolik (raqamlar) vositalar orqali bolalarga ma'lumotlarni taqdim etish juda ham muhim.

Chunki, o'g'il bolalarda ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni, intiutiv yo'llar bilan murakkab savollar yechimini izlab topishni afzal ko'radilar. Obrazli-intuitiv tafakkur xos bo'lganligi bois ularda yorqin va turli tusdagi emotsionallik hamda viziual makonda modellashtirish, loyihalash kabi hislatlar ko'proq namoyon bo'lib, ixtiro qilishda va asosiy g'oyalarni aniqlashda faoldirlar.

Xususan, qiz bolalar ma'lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishlari, bunda tahlil xususiydan umumiyga yo'nalganligi bilan farq qilishi, o'g'il bolalar esa voqeilikni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashga hamda tafakkurining umumiydan xususiyga moyilliklari bilan farq qiladilar, Qiz bolalar audialist ya'ni mantaqiy tafaqqurga hos, o'g'il bolalar esa vizualist, obrazli tafaqqurga xosdir.

Interaktiv doska orqali tarbiyalanuvchilarga yoshiga mos ravishda mavzuga oid savollar berilsa, bolalar ekranda hayvonlarni to'g'ri guruhga ajratishni, harflarni joyiga qo'yish ha ranglar bilan ishlashni tez va oson xotiraga saqlaydi. Ranglar bilan ishlash orqali bolalar ko'radi, haraqat qiladi va qaror qabulga o'rganadi. Bolalarda mayda motorika, diqqat va hotira kuchayadi. Michael Fullan fikriga ko'ra, bu texnologiya o'qituvchini "ma'lumot beruvchi"dan "yo'l ko'rsatuvchi"ga aylantiradi. YA'ni pedagog: mashg'ulotni boshqaruvchi emas, tashkil etuvchi bo'ladi hamda individual yondashuvni qo'llaydi.

Multimedia darslari — matn, audio, video va animatsiyani birlashtirgan ta'lim shakli hisoblanadi. Xorijiy bir qator olimlarni fikricha multimedia darslari inson ma'lumotni vizual + audio shaklda yaxshiroq qabul qiladi. Allan Paivio esa, ikki kanal orqali berilgan axborot xotirada mustahkam saqlanadi deb ta'riflaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun multimedia vositalari tayyorlashda quyidagi mezonlar e'tiborga olinishi lozim:

1. Tarbiyalanuvchilarning yoshini hisobga olish.

2. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda didaktik materiallarni tanlash.

3. Ta'lim jarayonida bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish.

4. Relaksatsiya etapining 15-20 daqiqa bo'lishini inobatga olish lozim bo'ladi. Multimediali didaktik vositalar tarbiyalanuvchi tafakkurini rivojlantirish, aqliy faoliyatini oshirish, diqqatini barqarorlashtirish, idroklarini faollashtirishga qaratilgan.



Maktabgacha yoshdagi bolalarga oy va hafta mavzulariga oid “Fasllar”, “Kitob tarxi” kabi mavzulardagi animatsiyalar, faoliyatga ta’lluqli qo’shiqlar orqali alifbo, video asosida tayyorlangan savol-javoblar juda qiziqarli bo’ladi. Bu orqali bolalar eshtadi, ko’radi va aqliy rivojlanadi. Pedagog esa mashg’ulotlarni qiziqarli o’tishi, berilgan mavzuni tushuntirishga osonlashadi hamda vaqt tejamkorligiga erishadi.

Ta’lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi odatdagi an’anaviy metodlarga nisbatan ma’lum bir afzalliklarga ega.

Jumladan:

- tarbiyalanuvchilarning fikrlash qobiliyatini o’stiradi;

- tarbiyalanuvchi bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi);

an'anaviy usullarga nisbatan ta'lim oluvchilarga o'rgatiladigan materialning hajmi ortadi;

- mashg'ulot davomida ta'lim oluvchilarni toliqtirmaslik uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;

- o'rganilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda namoyish etish yoki qayta namoyish etish mumkin. Mashg'ulotlar jarayonida multimediali didaktik vositalardan foydalanishda tahlil, dialog, analogiya, savol-javob metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Raqamli ta'lim resurslari — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan va ta'lim maqsadlarida foydalaniladigan elektron materiallar majmuasidir.



Ularga elektron kitoblar, test tizimlari, multimedia darslar, simulyatsiyalar va interaktiv mashqlar kiradi. Raqamli ta'lim resurslari mazmuni va funksional imkoniyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ❖ elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar;
- ❖ multimediali taqdimotlar;
- ❖ video va audio darslar;

- ❖ virtual laboratoriya ishlari;
- ❖ test va nazorat dasturlari;
- ❖ onlayn ta'lim platformalari.

Mazkur resurslar o'quv materialini ko'rgazmali, tushunarli va qiziqarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, video darslar murakkab jarayonlarni vizual tarzda tushuntirishga yordam beradi, interaktiv testlar esa bilimlarni mustaqil baholash imkonini yaratadi. Raqamli resurslarni ishlab chiqish bir necha bosqichdan iborat:

Loyihalash bosqichi — o'quv maqsadlari, auditoriya va mazmunni aniqlash.

Dizayn bosqichi — interfeys va vizual ko'rinishni ishlab chiqish.

Kontent yaratish — matn, grafika, video va audio materiallarni tayyorlash.

Dasturlash va integratsiya — interaktiv elementlarni qo'shish.

Sinov va joriy etish — resursni tekshirish va amaliyotga tatbiq qilish. Bunda multimedia texnologiyalari, veb-texnologiyalar, ta'lim platformalari hamda bulutli xizmatlardan keng foydalaniladi. Zamonaviy dasturiy vositalar yordamida interaktiv elektron darsliklar va virtual muhitlar yaratish mumkin. Raqamli resurslarning pedagogik ahamiyati katta bo'lib u quyidagilarga bo'linadi:

Raqamli ta'lim resurslari:

ta'lim jarayonini individuallashtiradi;

mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

o'quvchilar faolligini oshiradi;

vaqt va makondan mustaqil ta'lim olish imkonini beradi;

bilimlarni nazorat qilishni avtomatlashtiradi. Natijada ta'lim samaradorligi ortib, o'quvchilarda raqamli kompetensiyalar shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim resurslari zamonaviy ta'lim

tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularni yaratish va ta'lim jarayoniga samarali joriy etish ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash hamda raqamli jamiyat talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular o'quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi, o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va innovatsion ta'lim muhitini shakllantiradi. Kelajakda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, intellektual ta'lim muhitini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida sun'iy intellekt, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari asosida yanada mukammal ta'lim resurslari yaratilishi kutilmoqda.

- Bu uch vosita alohida emas, balki bir-biri bilan bog'liq:
- Interaktiv doska → faol ishtirok,
- Multimedia → tushunishni osonlashtirish ,
- Elektron resurs → mustaqil mustahkamlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta'limda innovatsiyaning rivojlanishi va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish ta'lim tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keladi. Zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni joriy etish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanadi. Innovatsion faoliyat maktabgacha ta'lim tizimining asosiy rivojlanish omili bo'lib, u tarbiyachilarning kasbiy salohiyati, zamonaviy bilimlari va ijodiy yondashuvi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli bu sohada innovatsiyalarni keng joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari. Koreya, Yaponiya, Germaniya davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimi

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv talab etiladi. Bunda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, tahlil qilish hamda filtrlash orqali milliy va zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimiga joriy etish kerak bo'ladi.

Masalan, bola tarbiyasi borasida yapon pedagoglari yosh yapon avlodini saqlab qolish vositasini O'zbekistondan topishdi. Bugungi kunda bizning ayrim odamlarimiz "zamonaviy emas", deb o'ynamay qo'yg'an harakatli o'yinlarni to'plab, olib ketib, o'zlarining superzamonaviy bolalariga o'rgatishayotgan ekan. Sababi-zamonaviy bolalar o'yinlari haddan ortiq texnokratlashib ketgan.

Ularda insoniy ruh, joziba, zavq va tuyg'ular kam. Demak, biz tarbiya usulida o'zimizning milliy tarbiya vositalarimizdan ham unumli foydalanishimiz kerak ekan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan didaktik o'yinlar bilan birg a qatorda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy o'yinlardan ham unutmashimiz kerak. Chunki bu o'yinlar o'ziga xos shunday xususiyatlarga egaki, u orqali bolalarda intimozlilik, uyushqoqlik, irodalilik kabi ijobiy fazilatlar muayyan harakatlar orqali shakllanadi. Albatta bunda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Koreyada bolalar bog'chalari umumiy ta'lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topshiradilar. Bolalar bog'chasiga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul

qilinadi. Olti yoshga to'lgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980-yillardan boshlab bolalar bog'chalari va maktabgacha muassasalarga boradigan bolalar soni keskin o'sdi: bunda 901 ta muassasaga 1980 yilda 66 433 bola borgan bo'lsa, 1987 yilda 7 792 muassasa mavjud bo'lib, ulardagi bolalar soni 397 020 taga etdi. Ulardagi tarbiyachi va pedagoglar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar tashkil etdi.

Koreya bog'chalari quyidagi turlarga bo'linadi: boshlang'ich; o'rta; yuqori.

Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimi asosan bolaning boshlang'ich har tomonlama rivojlantiruvchi ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan. Bolalar uch yoshdan boshlab koreys va ingliz tillarida o'qish va yozishni o'rganadilar. Shu yoshdan boshlab bolajonlar matematika sir-asrorlarini o'rganadilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog'lom va baquvvatligiga, shuningdek musiqa darslarining o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratadilar. Bog'chadan boshlab bolalarga judayam katta hajmda uyga vazifalar beriladi, ingliz tili darslarida alohida so'z va jummalarni tarjima qilishdan tashqari, bolalar o'z fikr va qarashlarini ingliz tilida ravon va sodda so'zlashni o'rganadilar.

Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi

Koreyada maktabgacha ta'lim ikki xil tizimga bo'lingan:

Bolalar bog'chalari (Kindergarten)

Parvarish markazlari (Childcare centers)

Bu ikki tizim ta'lim vazirligi hamda sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan boshqariladi. 0–5 yosh — parvarish markazlari, 3–5 yosh — bog'chalarga qabul qilinadi. Koreyada davlat tomonidan: bog'chalarga subsidiya beriladi, bu orqali ota-onalar xarajatlari kamaytiriladi. Koreyada 2013 yildan: “Nuri Curriculum” joriy etilgan. Bu dastur bolalarni jismoniy, kognitiv, ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishni qamrab oladi. Koreya bog'chalarida ona-onalar ta'lim tizimining faol ishtirokchi hisoblanadi. Bog'chalarda qamrov darajasi 94%ni tashkil etadi.

Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi. Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yaslga olib borish mumkin. Ko'pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo'lmish buvi va buvalar nevaralar tug'ilgandan so'ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo'q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog'chalari va yaslga berishga majbur bo'ladilar. Eng qiziqarli bolalar bog'chalari turlari quyidagicha:

1. Waldkindergarten (nemischa Wald so'zidan – o'rmon, Kindergarten – bolalar bog'chasi). Bunday bolalar bog'chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko'pincha bunday bog'chalar o'rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo'ladilar, daraxtlar va boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o'rgatiladi.

2. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so'zidan – dehqon xovlisi, qo'rg'oni; Kindergarten – bolalar bog'chasi). Bunday bog'chalar dehqon xo'jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo'ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog'larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.

3. Reggio-Kindergarten. Bunday bolalar bog'chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo'lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o'rtada katta bir xona (xoll) va undan shaharchaning turli «mavzellariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog'chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig'ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so'ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig'ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o'ynashi, konstruktorlar yig'ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo'yeqlar va devorlarga vatman qog'ozlar osib qo'yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko'yiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bog'chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni o'zlashtirishlarida ko'maklashadilar.

4. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo'nalishi o'z nomini bolalar tarbiyasiga o'ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo'nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog'chasida bolalar nima qilishlari, qanday o'yin o'ynashlari, nima bilan shug'ullanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o'zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig'ilishlarda bolalar MTM doirasida hulq-atvor qoidalarini o'zlari belgilashadi. Bunday bog'chalarda ijod qilish, syujet-rol o'yinlari, eksperimentlar, tabiat qo'yni yoki shaharning korxonasi va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

5. Integratsion bolalar bog'chalari. Bunday turdagi MTMLlarda sog'lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bag'rikenglik va hurmat qilishni o'rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo'lmaydilar, o'z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo'lishni o'rganadilar. Shunday bog'cha va maktablarning soni ko'pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta'lim olishi va o'zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. Internatsional bolalar bog'chalari. Bunday MTMLar emigrantlar uchun yaratilgan bo'lib, ko'pincha ularni emigrantlarning o'zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog'chalari juda ko'p. Bu muassasalarning konsepsiyasi bilingvallik tamoiyiliga asoslangan. YA'ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so'zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so'zlovchi tarbiyachi ham bo'ladi. Bunda bolalar ham otalarining tilini, ham nemis tilini o'rganadilar. Rus-nemis bog'chalarida ko'pincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan an'anaviy – Maslennitsa, 8 mart, Yangi yil kabi ko'p bayramlarga bag'ishlangan mashg'ulotlar ham bor. Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog'chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog'chalari ham mavjud. Agar o'rta statistik nemis bolalar bog'chasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo'ladi.

Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo'yadilar, pechenye pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda o'tirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashg'ulotlar yo'q. Bolalarga ko'p erkinlik beriladi. Ular istagan

narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning ko'p ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida konsepsiya, nazariya va g'oyalardan iborat katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bog'chaga berishlari mumkin.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim. Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi to'g'risida quyidagi keng tarqalgan iborani keltirish mumkin: «Bola 5 yoshgacha – qirol, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul, 15 yoshdan keyin esa barcha bilan teng huquqli inson». Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Albatta, bu falsafiy iborani boricha qabul qilish shart emas. Lekin bolaning hayoti bir necha davrlarga bo'linadi va bulardan birinchi davrida bola hammani o'ziga maftun etadi, uni asrab-avaylashadi, erkalashadi. Yoshi ulg'aygach bolada lazzatlanishdan tashqari o'zining harakatlari uchun mas'uliyat va qator majburiyatlar paydo bo'ladi. Ulg'ayishning ma'lum yoshiga yetgach kechagi bolakay bugun jamiyatning teng huquqli va teng maqomga ega a'zosiga aylanadi.

Buning hammasi Yaponiyaning ta'lim tizimida bir marom va ketma-ketlikda kuzatilib boriladi. Ta'lim tizimining, shu jumladan maktabgacha ta'lim rivojlanishi tarixi uzoq o'tmishning Meydzi davriga borib taqaladi. Yaponiyada 1876 yilda boy xonadon farzandlari uchun birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chalarining ochilishidan maqsad bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga yordam beradigan o'zaro munosabatda bo'lish muhitini yaratishdan iborat bo'lgan. Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlicha, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi. Davlat darajasidagi

maktabgacha tarbiya tizimi faqat 1961 yildan keyin keng tarqala boshladi. Bugungi kunga kelib, amalda har bir yapon bolasi bolalar bog'chasi yoki bolalarga qarash markaziga qatnaydi. Yaponiyada bolalar bog'chasi. Bolalarga nisbatan mehribonlik va muhabbat yapon jamiyati uchun muhim jihatlardan biri bo'lib bunday muhabbatning asosiy va muhim manbai ayoldir. Yakin davrlargacha yapon oilalarida ayollar o'z oilasini asrovchi, g'amxo'r xotin, mehribon ona bo'lib bolaga barkamol tarbiya berish uning vazifasi hisoblanar edi.

Oxirgi vaqtda vaziyat o'zgarib, yaponlar kech turmush quryaptilar va ko'p ayollar ishlashni xohlayaptilar yoki ishlashga majburlar. Shunga qaramay yapon onalarining aksariyati bolalarni 3 yoshgacha uy sharoitida tarbiyalab, keyin ijtimoylashish uchun bolalar bog'chalariga joylashtiradilar.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim quyidagi muassasalarda amalga oshiriladi:

- bolalar yaslisi, bolalarga qarash markazlar hoikuen,
- bolalar bog'chalari yōchien,

–nogironlar uchun maxsus muassasalar. Maktabgacha ta'lim umummajburiy bo'lmasa ham bolalar bolalar yaslilari va bog'chalari katta extiyojga ega hamda bolani bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun avvalroq harakat qilish lozim. O'rtacha olganda bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun 25000 bola navbatga turadi. Yaponiyada bolani bolalar bog'chasiga uch yoshdan bersa bo'ladi, yoki ko'pincha bolani 4 yoshdan beriladi. Maktabgacha o'qitish muddati 3 yil davom etib so'ngra bola boshlang'ich maktabga qabul qilinadi. Bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday xolat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Bolalar yaslilari bolalarga qarab turish faoliyati

bilan shugʻullanadilar va u yerda taʼlim berish dasturlari nazarda tutilmaydi hamda ular Taʼlim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas balki Sogʻliqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligiga boʻynsunadilar.

Yaponiyada bolalar yaslilari. Bolani maktabgacha tarbiya muassasiga joylashtirish masalasini, qanday muassasa (davlatga qarashli yoki hususiy) boʻlishidan qatʼiy nazar, munitsipalitet hal qiladi. Meriyaga (shahar xokimiyatiga) murojaat qilgan ota-onalarga bolalar bogʻchalari (yaslilar) qayerda joylashganligi koʻrsatilgan atlas beriladi. Bu atlasda u yerga boruvchi sxema, maktabgacha tarbiya muassasidagi joylar soni koʻrsatilgan. Ota-onalar avvalroq bolalar bogʻchasiga borishlari, tarbiyachilar bilan suhbatlashishlari va ularga yoqqan bogʻchani tanlashlari mumkin lekin xal qiluvchi natijani munitsipalitet belgilaydi va boʻsh oʻrin boʻlsa ota-onalarga bolani bogʻchaga (yasliga) borish uchun ruhsat beradi. Bolani bogʻchaga yilning barcha oyidan olib borish mumkin, lekin boʻsh oʻrinlar soni 1 aprelga kelib koʻpayadi chunki shu paytda oʻquv yili boshlanib bogʻchalarni bitiruvchi bolalarning bir qismi boshlangʻich maktabga yoʻl oladilar.

Yaponiyaning maktabgacha tarbiya tizimiga quyidagi turdagi muassasalar kiradi:

- davlatga, munitsipalitetga, prefekturaga tegishli;
- hususiy.

Shuningdek maktablar va institutlar qoshida ham bolalar bogʻchalari mavjud. YAʼni bolalar uchun bogʻcha yoshidanoq uning kelajakdagi oʻqish jarayoni belgilanadi. Bunday ixtisoslashtirilgan bolalar bogʻcha tarbiyalanuvchisi kelajakda tegishli nufuzli maktabga keyinroq esa universitetga kirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu jarayon bolani nufuzli bolalar bogʻchasiga keyin boshlangʻich soʻngra eng yaxshi oʻrta maktabga joylashtirish bilan boshlanadi va bola katta boʻlguncha

davom etadi. Natijada bola munosib kasb egasi bo'lishi va shunga mos ish haqi olishi uchun ota-otanasiz bola tug'ilishidan boshlab uning ta'lim olishiga katta mablag' sarflashlari kerak. Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini hususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarash markazlari tashkil etadi. Davlatga tegishli va hususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas.

Ta'lim berish jarayonining tizimi va yondashish ikkala turdagi muassasalarda ham 2006 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonun"ga mos ravishda olib boriladi. Bunda bolaning hox davlatga qarashli, hox hususiy bog'chada tarbiyalanishi uchun to'lov puli ota-onaning daromadiga qarab belgilanadi - oila daromadi qancha katta bo'lsa bog'cha puli ham shuncha katta bo'ladi. O'rtacha qilib olganda kam ta'minlanganlar uchun 100 AQSH dollardan, badavlat oilalar uchun 500 dollargacha to'lov amalga oshiriladi. Yaslilarda (bolaga qarash markazlarida) yana bolaning yoshi ham hisobga olinadi - bola qanchalik kichik bo'lsa, to'lov baxosi yuqori bo'ladi. Lekin bari bir hususiy bog'chalarda to'lov narxi yuqoriroq hamda har oylik to'lovdan tashqari kirish to'lovini ham o'z ichiga oladi va bu esa 1000 AQSH dollargacha borishi mumkin. Shular bilan birga hamma bog'chalar uchun majburiy bo'lgan forma uchun ham pul to'lash kerak bo'ladi. Har bir bolalar bog'chasi o'z formasiga ega bo'lib bunda bir xil shimchalar, yubkachalar, ko'ylakchalar, issiq ko'ynaklar, bosh kiyim va orqasiga osib yuriladigan xaltalar bo'lishi kerak. Formalarni kiyib yurish majburiy.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya. Maktabgacha ta'lim muassasidagi bola tarbiya va mazmuni sifati bog'chaning davlatga qarashli yoki hususiylikida emas balki aniq bog'chaning o'ziga, u joylashgan hududi va pedagogik jamoasiga bog'liq bo'ladi. Guruhlardagi bolalarning soni ham turlicha bo'lib, 8 nafardan 40-50 nafargacha

bo'lishi mumkin. Yaponiyada maktabgacha tarbiya muassasalarida ish soatlari turlicha. Misol qilib aytganda, davlat bog'chalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi – to'liq ish kunidan iborat bog'cha bo'lib, uning tartibiga ko'ra bog'cha har kuni va shanba (yarim kun) kuni qo'shilgan tarzda ishlaydi. Bunday bog'chaga ikkala ota-onasi kuniga 4 soatdan ko'proq ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Kun bunday bog'chalarda ertalab soat 8 dan boshlanib, bolani kechki soat beshgacha hoxlagan vaqtda olib ketish mumkin. Qo'shimcha to'lov evaziga bolaga kechki soat 7-gacha qarab turish mumkin. Ikkinchi ko'rinishdagi bog'chalar, bu bolalarni yarim kunga qabul qiladigan bog'chalar. Bir xil kutilmagan sharoitlarda, masalan kuchli to'fon havfi haqidagi ogohlantiruvdan so'ng ota-onalar bolalarni maktabgacha muassasadan olib ketishlari shart. Bolalar bog'chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o'ta yuqori darajada. Ertalab vaqtli bolalarni bog'chaga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog'chalaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog'chada otaonalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Va bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar. Bolalar yaslilarida tarbiyachilar kundalik daftar tutib unga bolaning kun davomidagi faoliyatini yozib boradi: bola qanday ovqatlandi, qanday uxladi, o'zini qanday xis qildi va hokazolar, va xuddi shu narsalarni ota-onalardan ham kutadilar.

Pedagoglar va ota-onalar har bir bola tarbiyasi to'g'risida o'zlarining qiziq kuzatuvlarini va fikrlarini yozib boradilar. Bolalar tarbiyasi jarayoni pedagog va ota-onaning birgalikdagi yaqin hamkorligida amalga oshiriladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozim, bu jarayonda pedagog (tarbiyachi) boshlovchi tomon hisoblanadi. U esa o'z navbatida otaonalarning bolalar tarbiyasida yo'l qo'ygan kamchilik

hamda adashishlarini ko'rsatib berishi mumkin va ota-onalar buni nafaqat hisobga olishi balki kelajakda undan qo'llanma sifatida foydalanishi zarur. Maktabgacha tarbiya muassasa pedagogik jamoalari tomonidan bolalarni tarbiyalash usuli bo'yicha ota-onalar o'qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar majlislari o'tkaziladi. Bolalarning onalari odatda bir-birlari bilan tez-tez o'zaro suxbatlashib turadilar, turli masalalarni xal qiluvchi «onalar» qo'mitalari tuzadilar, bolalar muassalarida o'tkazib turiladigan sport kunlari, kuzatuv va boshqa tadbirlar kunlarida qatnashib turadilar. Ammo, avvalambor, maktabgacha yoshdagi yapon bolalarining tarbiyasi uydan boshlanadi. Aynan ota-onalar o'z farzandlariga ma'lum axloq usullarini singdirib boradilar, o'z xatti-harakatlari bilan bolalarni mehribon, xushmuomalali, rahmdil va mustaqil bo'lishni o'rgatadilar. Bola uchun onaning mehri juda yuqori darajada va onaning yaxshi munosabatini yo'qotish uning uchun oliy jazodan ham qo'rqinchi xol. Yapon oilalarida odatda bola hech qachon jazolanmaydi va unga «yo'q» deyilmaydi. Buning o'rniga oilada – bu harakatingdan ota, ona yoki yana biror kimsa ranjishi mumkin, degan ibora ishlatiladi. Shunga o'xshash, tarbiyalash maqsadida, bolaga bunday ishing kimgadir yoqmaydi, deyish ham mumkin. Va bu «kimdir» bu yaponning butun hayoti davomi uning yonidaligi xis etiladi, va yaponlar uchun jamoat fikri juda muhim. Oiladagi asos solingan tarbiya asoslari bolalarning jamoaviy hamkorligi sharoitida rivojlantiriladi.

Tarbiyachi bolalarga o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatish jarayonida alohida kichik guruhlar – «xan» tuzadi. B guruhlarda bolalar o'zaro fikr almashish va mustaqil bo'lish ko'nikmalarini o'rganishadi. Bolalarga guruhdagi boshqa qatnashchilarning fikriga quloq solib, hisobga olgan xolda o'z fikrini bildirishga o'rganadilar. Bolalar o'z guruxlarida o'zlari qulayliklar va tartib yaratadilar,

yig'ishtirib gullarni parvarish qiladilar, xatto mustaqil ravishda o'zlariga ovqat ham tayyorlaydilar. Shu yo'l bilan bolalarni guruhlarda harakat qilishga o'rgatadilar. Bolalarning o'rtasidagi kelishmovchiliklar yoki yoqalashishlar paydo bo'lganda tarbiyachi darrov aralashib, o'rtaga tushmaydi, chunki bolaning o'zi kelishmovchilikni xal qila bilishni o'rganishi kerak va bu unga kuchliroq bo'lishda yordam beradi. Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayonida teztez tarbiyachi va guruhlar o'zgartirib turiladi. Bu bolani bir xil odamlarga, bir xil sharoitga o'rganib qolmay jamiyatda yashashga o'rgatish uchun zarur. Bolalar maktabda yozishni, o'qishni o'rganadilar, lekin bolalar bog'chasiga qatnashdan asosiy maqsad bolani ijtimoylashtirish. Uni guruhlarda yashash, guruh manfaatlari bilan yashashga o'rgatishdir.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan, bular:

- ijtimoiy munosabatlar;
- salomatlik, havfsizlik;
- til;
- atrof muxit;

–his-tuyg'ularini ifodalash. Maktabgacha va maktab ta'limi sohalardagi bunday davlat siyosatiga tufayli yapon bolalariga sport bilan shug'ullanish va chiniqish ko'nikmalari singdiriladi. Tez-tez Yaponiya ko'chalarida oktabr oyida bog'cha rangidagi kalta shim kiygan bolalarni uchratish mumkin. Bu bolalarda sovuq kunlarda oyoq yalang yurish ko'nikmalarini singdirishni amaliyotidan darak beradi. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o'ziga ishonishni, yangi ko'nikmalarni egallashga, xalq ertaklarini va kitoblarni o'qib tilga va madaniyatga o'rgatadilar. Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari – sog'lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini

yaratishga qaratilgan. Bolalar bog'chalaridagi mashg'ulotlar. Bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga (poxodga) chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g'olib emas. Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani chidamlikka o'rgatish va o'zi atrofidagi hududni o'rganish. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak⁴³.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

-
1. Innovatsion pedagogika deganda nima tushuniladi va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
 2. Innovatsion pedagogikaning an'anaviy pedagogikadan farqi nimada?
 3. "Innovatsiya" tushunchasining mazmuni va ta'lim tizimidagi o'rnini qanday?
 4. Innovatsiyaning rivojlanish bosqichlari qanday kechadi?
 5. Tarbiyachining innovatsion faoliyati deganda nima tushuniladi?

⁴³ Абидов Б. К, Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажрибаси) Мактабгача таълим / Дошкольное образование 2017, 11. <file:///C:/Users/user/Downloads/maktabgacha-talim-horizhiy-mamlakatlar-tazhribasi.pdf>

6. Maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etishning qanday usullari mavjud?
7. Koreyada maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
8. Yaponiyada maktabgacha ta'limda qanday innovatsion yondashuvlar qo'llaniladi?
9. Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan va uning afzalliklari nimada?
10. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishda qanday foydalanish mumkin?

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMPETENSIYASI

Ishning maqsadi :Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetensiyalari bo‘yicha talabalarda zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi pedagogik, psixologik va metodik asoslarga tayangan holda namoyon bo‘lib, u bolalar bilan samarali ishlash, ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon tarbiyachining kasbiy bilimdonligi, kommunikativ qobiliyati, ijodiy yondashuvi va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uni zamonaviy ta‘lim talablariga mos yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

“Kompetensiya” atamasi lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib, mazmunan shaxsning muayyan faoliyat yo‘nalishida yetarli bilimga ega ekanligi, tajriba orttirganligi va ushbu bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Shunga ko‘ra, kompetent shaxs ma‘lum bir sohada puxta bilimga tayangan holda mustaqil fikr yurita oladi hamda o‘z faoliyatini samarali tashkil eta olish salohiyatiga ega bo‘ladi.


“Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O‘z sohasining, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir.

B.D.Elkonin

TARBIYACHINING KASBIY KOMPETENTLIGI



Tarbiyachining kasbiy kompetentligi — bu maktabgacha ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning har tomonlama rivojlalishini ta’minlash va tarbiyaviy faoliyatni maqsadga muvofiq olib borish qobiliyatini ifodalovchi, bilim, ko’nikma, malaka va pedagogik tajribaga tayanuvchi integrallashgan sifatlar tizimidir.



XULOSA: Tarbiyachining kasbiy kompetentligi nafaqat nazariy bilimlarga egalikni, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash orqali bolalar rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beruvchi kompleks kasbiy tayyorgarlik darajasini ifodalaydi.

Guruhlar bilan ishlash:

Pedagogik (metodik) kompetentlik. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish (case study)

Psixologik kompetentlik. Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini aniqlashga doir topshiriqlar

Kommunikativ kompetentlik. Nutq madaniyatini rivojlantirish mashg'ulotlari

Kreativ va innovatsion kompetentlik. Yangi pedagogik g'oyalar ishlab chiqish (brainstorming)

Informatsion va texnologik kompetentlik. AKT vositalaridan foydalanish (prezentatsiya, video dars)

Shaxsiy va reflektiv kompetentlik. O'z faoliyatini baholash (self-assessment)

Ekstremal (muammoli vaziyat) kompetentlik. Pedagogik nizolarni hal qilish mashqlari

Mashg'ulot yakunida "Quyoshli uslub"dan foydalangan holda yakunlash tavsiya etiladi. "Quyoshli uslub" – bu fidbek berishda ishlatiladigan muloyim va motivatsiya beruvchi usul bo'lib, tanqidni ijobiy tarzda yetkazishga yordam beradi. Bu usulda fidbek uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Ijobiy tomonlar – avval shaxs yoki guruhning yaxshi tomonlari, muvaffaqiyatlari ta'kidlanadi.

2. Takliflar – rivojlanish uchun takliflar, yaxshilash mumkin bo'lgan jihatlar ko'rsatiladi.

3. Qo'llab-quvvatlash – shaxsning kelajakda yaxshiroq natijaga erishishiga ishonch bildiriladi va unga ruhiy rag'bat beriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon bolaning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish, unda mustaqil o'rganish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilishi kerak. Shu sababli, ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorlikda ishlashi muhimdir.

Mashg‘ulot yakuni: “A4 format” metodi. Bu metod orqali talabalardan bugungi o‘tilgan mashg‘ulotdan nimalar o‘rganganligi so‘raladi. Har bir talaba o‘z daftariga yozishni va navbat bilan o‘qib berishligi kerak.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kompetensiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga qanday bilim va ko‘nikmalar kiradi?
3. Pedagogik kompetensiya tarbiyachining faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
4. Tarbiyachining kommunikativ kompetensiyasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Tarbiyachining shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyasi qanday namoyon bo‘ladi?
6. Kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tarbiyachi nimalarga e’tibor berishi kerak?

TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Ishning maqsadi: “Tarbiyachining pedagogik mahorati” mavzusi doirasida talabalarda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalariga oid zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachining pedagogik mahorati pedagogik, psixologik va metodik bilimlarga tayangan holda namoyon bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalar bilan to‘g‘ri va samarali muloqot o‘rnatish hamda ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mashg‘ulot jarayonida talabalarda tarbiyachining kasbiy bilimdonligi, kommunikativ madaniyati, ijodiy va innovatsion yondashuvi, shuningdek reflektiv faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Natijada ular zamonaviy ta’lim talablariga mos, pedagogik mahoratga ega bo‘lgan yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi uchun zarur asoslar yaratiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi, avvalo, tarbiyachi shaxsiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Chunki tarbiyachi bolani nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki

uning shaxsiy shakllanishiga, axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga, jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishiga katta hissa qo‘shadi. Bunda esa tarbiyachining pedagogik mahorati muhim o‘rin tutadi. Pedagogik mahorat - bu faqatgina nazariy bilimlar emas, balki ularni amaliyotda to‘g‘ri va samarali qo‘llay olish, psixologik yondashuv, muloqot madaniyati, individual ishlash qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liq.

1. Psixologik tayyorgarlik. “Fikrlar klasterlari” metodi yordamida tarbiyachining pedagogik mahorati mavzusi yuzasidan tahlil qilish topshirig‘i beriladi (guruhlarga topshiriq).


1-guruh: Tarbiyachining pedagogik mahoratini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlash.

2-guruh: Tarbiyachining muloqot va kommunikativ mahoratini tahlil qilish.

3-guruh: Tarbiyachining metodik mahorati va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi.

4-guruh: Tarbiyachining kasbiy rivojlanishi va o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘llari.

Fikrlar klasterlari (ing. Clustering yoki Mind Mapping) – bu o‘quvchi (talaba)larning fikrlash va g‘oyalarni tizimlashtirishga yordam beradigan metod bo‘lib, ma‘lum bir mavzu bo‘yicha asosiy va ikkinchi darajali g‘oyalarni tuzilmali shaklda tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Bu usul, ayniqsa, yangi mavzuni tushuntirish, muxokama qilish yoki esse va insholar yozishda foydali.



Bu metod yakunida muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish orqali amalga oshiriladi.



Pedagogik mahorat va shaxsiy shakllanish o'rtasidagi bog'liqlik.

Pedagogik mahorat darajasi bevosita tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari, kasbiy e'tiqodi va hayotiy qarashlariga bog'liq. Shaxsiy sifatlar (mehribonlik, halollik, empatiya) bilan kasbiy mahorat uyg'unlashgan taqdirdagina chinakam samarali tarbiyachi shakllanadi. Shuningdek, tarbiyachi o'z ustida ishlamas ekan, u mahorat jihatdan ham, shaxs sifatida ham o'sish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Ayni paytda tarbiyachining o'zini anglash darajasi ham katta ahamiyatga ega. U o'zining kasbiy faoliyatidagi kamchiliklarni tan olib, ularni bartaraf etishga intilgan taqdirdagina haqiqiy o'sishga erishadi. Shaxsiy shakllanish bu - doimiy jarayon bo'lib, u o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishni, yangilikka ochiqlikni va o'z ustida ishlashni talab etadi.⁴⁴

⁴⁴ Pedagogik mahorat va tarbiyachi shaxsining shakllanishi Shahlo Nasriddinova Pulatova. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz June 2025 / Volume 6 Issue 6



Mashg'ulot yakuni: “Charxpalak” metodi yordamida o‘zlashtirilgan bilimlarini o‘quvchi (talaba)lar og‘zaki, ketma-ket fikrlarini bildiradi. Shu orqali yana bir bor mavzu yuzasida olgan bilimlarini takrorlab ham oladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarbiyachining pedagogik mahorati deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi asosiy omillar qaysilar?
3. Tarbiyachining muloqot madaniyati uning ish faoliyatiga qanday ta'sir qiladi?
4. Mashg'ulot jarayonida tarbiyachi qanday metod va usullardan foydalanishi kerak?
5. Tarbiyachining kasbiy rivojlanishi nima uchun muhim?
6. Tarbiyachi o'z pedagogik faoliyatini qanday tahlil qilishi mumkin?


ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIDJI

Ishning maqsadi: Zamonaviy tarbiyachi imidjini shakllantirish orqali pedagogning kasbiy, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, uning bolalar bilan samarali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi o'rnini mustahkamlashdan iboratdir. Shu bilan birga, mazkur mavzu tarbiyachida innovatsion yondashuv, nutq madaniyati, shaxsiy namuna bo'lish qobiliyati va raqamli savodxonlik kabi zamonaviy pedagogik fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulot jarayonida zamonaviy tarbiyachi imidji bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib

chiqiladi. Bu esa tarbiyachiga o'z faoliyatida professional yondashuvni kuchaytirish, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda ta'lim jarayonida ijobiy pedagogik muhit yaratish imkonini beradi.

Savol: Zamonaviy tarbiyachi imidjini shakllantirishda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar qanday rol o'ynaydi?



Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich sifatida qaralmoqda. Shu jarayonda tarbiyachining o'rni bevosita hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning kasbiy qiyofasi – imidji ta'lim sifati va bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachi imidji – bu pedagogning faqat tashqi ko'rinishi emas, balki uning kasbiy bilim darajasi, axloqiy pozitsiyasi, muloqot madaniyati va shaxsiy fazilatlari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-pedagogik tushunchadir.

Imidj tarbiyachining jamiyatdagi nufuzi, ota-onalar bilan munosabati hamda bolalar ongida shakllantiradigan ishonch darajasini belgilaydi.



ZAMONAVIY TARBIYACHIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR





KASBIY BILIM VA MALAKA

- Bolalarning yosh psixologiyasi, rivojlanish bosqichlari va ta'lim metodlarini chuqur bilishi.
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish va uni samarali tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi.





PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV

- Har bir bola individual shaxs sifatida qabul qilinadi.
- Bolalarning psixologik holatini tushuna olishi, ularning ehtiyojlariga mos yondashuvni tanlashi muhim.



MULOQOT VA HAMKORLIK MADANIYATI

- Tarbiyachi ota-onalar, hamkasblar va bolalar bilan samarali muloqot qila olishi lozim.
- Nutqning ravonligi, ijobiy ohang va pedagogik etika muhim rol o'ynaydi.





Zamonaviy tarbiyachi - bilimli, mahoratli, mehribon, ijodkor va doimiy rivojlanishga intiluvchi mutaxassisdir.



INNIVATSION VA AXBOROT SAVODXONLIGI


- Raqamli texnologiyalarni qo'llashni bilishi.
- Elektron resurslardan foydalanishi.
- Yangicha pedagogik usullarni amaliyotga tatbiq eta olishi.



✿ BOLA TARBIYASI – KELAJAK TARBIYASI! ✿

Zamonaviy tarbiyachi imidji pedagogik faoliyatning markaziy elementi hisoblanadi. U nafaqat kasbiy bilimga, balki yuksak axloqiy madaniyat, innovatsion fikrlash va bolalar bilan ishlash mahoratiga ega bo'lgan shaxsni ifodalaydi. Bunday imidj ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ZAMONAVIY TARBIYACHI IMIDJINING TARKIBIY QISMLARI



Bosqich	Jarayon	Tarbiyachilar uchun foydasi
1. Vaziyatni tanlash	Tarbiyachi yoki murabbiy real hayotdagi bolalar bilan bog'liq muammo yoki holatni tanlaydi.	Tarbiyachilarni konkret muammolar bilan tanishtirish va amaliyotga tayyorlash.
2. Vaziyatni	Tarbiyachilar guruhda muammolarni muhokama	Amaliy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi,

tahlil qilish	qilib, o'z fikrlarini bildiradilar va yechim taklif qiladilar.	guruhdagi fikr almashish orqali o'z bilimlarini boyitadi.
3. Tajribali fikr almashish	Tajribali tarbiyachi yoki metodist tahlil jarayonida tajribasini o'rtoqlashadi, misollar bilan izohlaydi.	Tajribali tarbiyachilarning yondashuvlari orqali yangi metod va yondashuvlar haqida tushuncha hosil bo'ladi.
4. Yechim ishlab chiqish	Tarbiyachilar muammoni hal qilish uchun o'z takliflarini ishlab chiqadilar va amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.	Muammoni hal qilish bo'yicha yangi va samarali yondashuvlarni ishlab chiqadilar.
5. Natija va tahlil	Tarbiyachi guruh bilan birgalikda yechimlarni baholaydi va eng yaxshi yondashuvni tanlashga yordam beradi.	Yechimlarni baholash va tahlil qilish orqali samarali yondashuvlarni aniqlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Case study: Tarbiyachi imidji bilan bog'liq muammoli vaziyat

Vaziyat: Bog'chada ishlovchi tarbiyachi Mohira opa tajribali bo'lsa-da, uning kasbiy imidjida ayrim kamchiliklar kuzatilmoqda.

Dars jarayonida:

- U bolalar bilan muloqotda ba'zan sabrsizlik qiladi, ayrim bolalarga nisbatan keskin ohangda gapiradi
- Nutqi murakkab va tez bo'lib, bolalar hamma gapni tushunavermaydi
- Tashqi ko'rinishiga yetarlicha e'tibor bermaydi (tartibsiz kiyim, pedagogik muhitga mos emas)
- Guruhdagi tortinchoq bolalarga individual yondashuv yetarli emas
- Zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan kam foydalanadi

Natijada:

- Bolalar tarbiyachidan biroz cho'chiydi
- Darslarda faollik pasaygan
- Ota-onalar ham tarbiyachining ish uslubidan qoniqmayapti

Muammo mohiyati: Bu vaziyatda tarbiyachining imidji (kasbiy va shaxsiy qiyofasi) to'liq shakllanmagan va bu bevosita ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muammoli savollar:

1. Ushbu vaziyatda tarbiyachining imidjining qaysi tarkibiy qismlari (kasbiy yetuklik, shaxsiy fazilatlar, tashqi madaniyat, nutq madaniyati) yetarli darajada rivojlanmagan?
2. Tarbiyachining nutq madaniyati bolalar rivojiga qanday ta'sir qilmoqda?
3. Shaxsiy fazilatlar (sabr-toqat, mehr, empatiya) yetishmasligi qanday oqibatlarga olib kelmoqda?
4. Tashqi ko'rinish (imidj) bolalarga va ota-onalarga qanday ta'sir qiladi?
5. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bu muammoni qanday hal qilishi mumkin?

Topshiriq:

Ushbu vaziyatni tahlil qiling va:

- Tarbiyachining imidjini yaxshilash bo'yicha aniq amaliy choralar rejasi tuzing
- Har bir komponent (kasbiy, shaxsiy, nutq, tashqi) bo'yicha yechimlar yozing

Keyingi topshiriq:

Bilib qo'ygan yaxshi!

“BBB” metodi bu B-B-B sxemasi bo'yicha talabalar bilan mavzuni mustahkamlash uchun ijodiy ishlash metodi.

Talabalar guruhlariga bo'linishadi. O'tilayotgan mavzu yoki tushuncha yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini to'ldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarining javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi.

Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarining savollari jamlanadi. Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va

jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bilib oldim» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Zamonaviy tarbiyachi imidji deganda nima tushuniladi?
2. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi uning imidjiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Muloqot madaniyati tarbiyachi imidjida qanday rol o'ynaydi?
4. Zamonaviy tarbiyachi uchun tashqi ko'rinish (kiyinish va gigiyena) nima uchun muhim?
5. Innovatsion va axborot texnologiyalarini bilish tarbiyachi faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
6. Tarbiyachi imidjini shakllantirishda shaxsiy fazilatlarining o'rni nimada?

TARBIYACHI-PEDAGOG FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV

Mashg'ulot maqsadi:

1. Tinglovchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
2. Pedagogik faoliyatda innovatsion va kreativ yondashuvlardan foydalanishni o'rgatish;
3. Amaliy vaziyatlar orqali muammoli yechimlar topish malakasini shakllantirish;

Kreativlik — bu shaxsning yangi g'oyalar yaratish, noodatiy fikrlash, muammolarga o'ziga xos yechim topish qobiliyatidir. U faqat san'at yoki ijod bilan cheklanmay, balki kundalik hayot va kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogika sohasida kreativlik o'qituvchi va tarbiyachining ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va innovatsion tarzda tashkil etishiga xizmat qiladi.

Pedagogikada kreativlik — bu ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv, an'anaviy metodlardan tashqari samarali usullarni qo'llash, bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishdir. Kreativ pedagog bolalarni faqat tayyor bilim bilan ta'minlamaydi, balki ularni izlanishga, savol berishga va yangi g'oyalar yaratishga undaydi.

Tarbiyachi faoliyatida kreativ yondashuv ayniqsa muhimdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni o'yin, tajriba va tasavvur orqali anglaydi. Agar tarbiyachi darslarni qiziqarli o'yinlar, rolli sahnalar, muammoli vaziyatlar orqali tashkil etsa, bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Kreativ yondashuv bolalarda mustaqillik, faollik, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kreativ tarbiyachi doimo yangilikka intiladi, o'z ustida ishlaydi va ta'lim jarayonini boyitishga harakat qiladi. U zamonaviy pedagogik

texnologiyalar, interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan samarali foydalanadi. Natijada bolalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlardan chiqish va o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatlari shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, kreativlik pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, u ta'lim sifatini oshiradi va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Tarbiyachining kreativ yondashuvi esa bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

1-topshiriq: Кейс-стади (Case study) (25 daqiqa)

Vaziyat: Guruhdagi bolalar dars jarayonida zerikib qolmoqda va faol ishtirok etmayapti.


Topshiriq:

- Muammoni aniqlang
- Kreativ yondashuv asosida 2–3 ta yechim taklif qiling
- Guruhda muhokama qiling

Natija: Har bir guruh o'z yechimini taqdim etadi.

2-topshiriq: Ta'lim texnologiyasi asosida ishlash (30 daqiqa)

Metod: “Aqliy hujum” (Brainstorming)



Topshiriq: “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish yo'llari” mavzusida:

- 10 ta kreativ usul ishlab chiqing?
- Ularni amaliy misollar bilan izohlang ?

3-topshiriq: Ta'limiy o'yin (25 daqiqa)

O'yin nomi: "Noodatiy dars"



Topshiriq:

- Oddiy bir mavzuni (masalan: ranglar, hayvonlar, fasllar) tanlang .
- Uni kreativ tarzda o'qitish uchun mini-sahna yoki o'yin yarating.
- Rollarga bo'linib namoyish eting .

4-topshiriq: Mini loyiha (10 daqiqa)

Topshiriq:

"Kreativ tarbiyachi qanday bo'lishi kerak?" mavzusida kichik loyiha (poster yoki sxema) tayyorlash.

Mashg'ulot yakunida: Tinglovchilar faoliyatini tahlil qilish, eng yaxshi g'oyalarni rag'batlantirish hamda xulosa va fikr almashish

Maktabgacha ta'lim uchun 9 ta kreativ usul

1. "Sehrli buyum" (Morfologik tahlil)

Bolalarga oddiy buyum (masalan, qashiq yoki bo'sh quti) beriladi. Vazifa: undan o'z vazifasidan tashqari yana 10 xil usulda foydalanish yo'lini topish.

* *Natija:* Tasavvur chegaralari kengayadi.

2. "Agarda..." (Gipotetik savollar)

Bolalarga g'ayritabiiy vaziyatlar taklif qilinadi. Masalan: *"Agar odamlar ucha olganda nima bo'lardi?"* yoki *"Agar hamma narsa shirinlikdan bo'lsa-chi?"*.

* *Natija:* Sabab-oqibat aloqalarini ijodiy talqin qilish.

3. "Ranglar janjali" (Art-terapiya va kreativlik)

Bolalarga faqat bitta rang beriladi va shu rangda "baxt" yoki "shamol"ni chizish so'raladi. Yoki ikki xil bir-biriga mos tushmaydigan rangni birlashtirib, yangi dunyo yaratish vazifasi beriladi.

4. "Ertakni davom ettir" (Storitelling)

Mashhur ertakning yarmida to'xtab, voqealar rivojini mutlaqo boshqacha (masalan, bo'ri bilan quyon do'st bo'lib qolsa) davom ettirish so'raladi.

* *Natija:* Nutq va mantiqiy ijodkorlik rivojlanadi.

5. "Tirik chiziqlar" (Dudling metodi)

Qog'ozga tartibsiz chiziqlar chiziladi. Bola shu chiziqlar ichidan biror hayvon yoki buyum shaklini topib, uni to'ldirib chizishi kerak.

6. "Muammoli qo'g'irchoq"

Tarbiyachi qo'g'irchoq orqali bir muammoni aytadi (masalan: *"Mening soyabonim yo'qolib qoldi, yomg'irdan qanday himoyalansam bo'ladi?"*). Bolalar eng g'alati va qiziq yechimlarni taklif qilishadi.

7. "Dunyoni boshqa ko'z bilan ko'r"

Bolalarga turli "ko'zoynaklar" beriladi (xayyoliy). *"Hozir sen chumoli ko'zi bilan qara", "Endi esa gigant fil ko'zi bilan qara"*. Ular atrofdagi buyumlarni shu nuqtai nazardan ta'riflashadi.

8. "Musiqali rasm"

Klassik yoki tabiat tovushlari qo'yib beriladi. Bolalar musiqa ritmi va kayfiyatiga qarab qog'ozda ranglar va shakllar bilan "musiqani chizishadi".

9. "Kombinat" (Yangi buyum yaratish)

Ikkita mutlaqo bog'liq bo'lmagan so'z beriladi (masalan: *Olma* va *Telefon*). Bolalar "Olma-telefon" qanday bo'lishini, nima vazifa bajarishini o'ylab topishlari kerak.

Mashg'ulot so'ngida 3-2-1 refleksiya metodi qo'llaniladi. Bugungi mashg'ulotda 3ta qiziq bo'lgan ma'lumot. 2ta tushunmay qolgan ma'lumotlar. 1-yana nimani o'rganishni hojlaysiz.



Uyga vazifa:

1. "Kreativ tarbiyachi" mavzusida esse yozish (1–2 bet).
2. O'z ish faoliyatidan kelib chiqib: 1 ta kreativ dars ishlanmasi tayyorlash, unda kamida 2 ta interfaol metod qo'llash kerakligi topshiriq qilib beriladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI

Mashg'ulot maqsadi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari haqida bilim berish.
2. Noan'anaviy va interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Kreativ yondashuv asosida mashg'ulotlarni rejalashtirish malakasini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etish — bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali yo'lga qo'yishdir. Bu jarayonda asosiy e'tibor bolalarning qiziqishi, ehtiyoji va rivojlanish darajasiga qaratiladi. Mashg'ulotlar mazmunli, qiziqarli va bolalarni faol ishtirok etishga undovchi bo'lishi zarur.

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, mashg'ulotlar an'anaviy tushuntirish usulidan ko'ra ko'proq interfaol, o'yin asosida va muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Tarbiyachi mashg'ulot davomida yo'naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash, izlanish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi yo'llar muhim hisoblanadi:

- O'yin texnologiyalaridan foydalanish
- Rolli va sahnalashtirilgan mashg'ulotlar tashkil etish

- Muammoli vaziyatlar yaratish
- Integratsiyalashgan (fanlararo) yondashuvni qo'llash
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish .

Shuningdek, mashg'ulotlar qisqa, dinamik va bolalar e'tiborini jalb etuvchi bo'lishi kerak. Har bir faoliyat turi (nutq rivojlantirish, matematika, atrof-muhit bilan tanishtirish va boshqalar) o'zaro bog'liq holda olib borilishi maqsadga muvofiq. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Noan'anaviy va kreativ yondashuvlar esa bu jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

Amaliy topshiriqlar. 1- Klaster metodi

Topshiriq:“Mashg'ulotni tashkil etish” tushunchasi asosida klaster tuzish. **Jarayon:**

- Tinglovchilar 3–4 kishilik guruhlariga bo'linadi
- Har bir guruhga vatman/qog'oz beriladi
- Markazga: “*Mashg'ulotni tashkil etish*” yoziladi
- Atrofga quyidagilar yoziladi:
 - Maqsad
 - Metodlar
 - Vositalar
 - Faoliyat turlari
 - Baholash. Har bir guruh o'z klasterini himoya qiladi

2- Amaliy topshiriq.

Topshiriq: Guruhlarga quyidagi vazifa beriladi: Berilgan mavzu asosida (masalan: ranglar, hayvonlar, sonlar) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 15 daqiqalik mashg'ulot rejasini tuzing.

Rejada quyidagilar bo'lishi shart:

- Mashg'ulot maqsadi
- Jihozlar

- Metod (kamida 2 ta)
- O‘yin elementi
- Yakuniy baholash. Guruhlar taqdimot qiladi va o‘zaro baholaydi.

3. Ta’limiy o‘yin . O‘yin nomi: “Pedagogik vaziyat”

Jarayon: Har bir guruhga vaziyat beriladi:

- Bola mashg‘ulotga qiziqmayapti,
- Bolalar shovqin qilmoqda ,
- Bir bola faol, boshqalari passiv.

Topshiriq: Vaziyatdan chiqish yo‘lini topish va sahnalashtirish

Maqsad: Amaliy fikrlashni rivojlantirish.

“Aqliy hujum” metodi. Savol: Zamonaviy mashg‘ulot qanday bo‘lishi kerak? Tinglovchilar fikr bildiradi: Interaktiv, qiziqarli individual yondashuv, innovatsion texnologiyalar, Har birini mazmun va mohiyatini ochib bering. Dars yakunida refleksiya qilinadi.


Рефлексия



“Mo‘jiza daraxt”



Менда ҳаммаси ўхшаяпти.
Менинг кайфиятим яхши.



Қийин бўлди, лекин менга
ёқди. Менинг кайфиятим
яхши.



Менда унча ўхшамаяпти.
Лекин ҳаракат қилишим
керак.

Uyga vazifa:

1. Maktabgacha ta'lim uchun 20 daqiqalik mashg'ulot ishlanmasini yozish. Kamida 2 ta ta'limiy o'yinni ishlab chiqish. Klaster metodidan foydalanib bitta mavzuni tahlil qilish.

TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATI

Mashg'ulot maqsadi:

1. Tarbiyachining innovatsion faoliyati va uning mazmuni haqida tushuncha berish.
2. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish .
3. Tarbiyachining kreativ va yangicha yondashuv asosida ishlash malakasini rivojlantirish.

Tarbiyachining innovatsion faoliyati — bu maktabgacha ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu esa bevosita tarbiyachining innovatsion faoliyatiga bog'liq.

Innovatsion faoliyat, avvalo, tarbiyachining yangilikka ochiqligi, o'z ustida muntazam ishlashi va kasbiy mahoratini oshirib borishi bilan belgilanadi. Bunday tarbiyachi an'anaviy dars o'tish usullaridan tashqari, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'yin asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yaratish kabi usullardan samarali foydalanadi. Masalan, “aqliy hujum”, “klaster”, “rol o'ynash”, “kichik guruhlarda ishlash” kabi metodlar bolalarning faolligini oshiradi va mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovatsion faoliyat jarayonida tarbiyachi har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga oladi. Bu esa differensial yondashuvni talab qiladi. Har bir bola o'z qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasiga mos topshiriqlar orqali ta'lim jarayoniga jalb etiladi. Natijada bolalarda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi.

Innovatsion faoliyatning yana bir muhim jihati — ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy vositalardan foydalanishdir. Multimediali taqdimotlar, didaktik o'yinlar, elektron resurslar va vizual materiallar mashg'ulot sifatini oshiradi. Shu bilan birga, tarbiyachi ota-onalar bilan ham innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Masalan, onlayn muloqot, maslahatlar, qo'shma loyihalar orqali ta'lim jarayonining uzviyligi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining innovatsion faoliyati — bu zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda ishlash, yangiliklarni izlash va amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Bunday faoliyat natijasida maktabgacha ta'lim sifati oshadi, bolalar esa faol, ijodkor va mustaqil shaxs sifatida shakllanadi.

Amaliy topshiriqlar. 1-topshiriq: Кейс-анализ

Vaziyat: Tarbiyachi an'anaviy usulda mashg'ulot o'tkazmoqda, bolalar esa passiv va qiziqishi past.

Topshiriq: Muammoni aniqlang; Innovatsion yondashuv asosida 2–3 ta yechim taklif qiling; Qaysi pedagogik



texnologiyadan foydalanish mumkinligini ko'rsating. Мазкур топшириқ якунида гуруҳлар тақдимот қилиб берилади.

2-topshiriq: "Innovatsion dars modeli"

Topshiriq:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bitta mavzu tanlang (masalan: "Fasllar", "Hayvonlar")
- Shu mavzu asosida innovatsion mashg'ulot modeli tuzing.
- Unda kamida 2 ta interfaol metod yoki texnologiya bo'lsin. Мазкур топшириқ якунида гуруҳлар тақдимот қилиб берилади.

3-topshiriq: "Yangi g'oya yarating"

Topshiriq:

- "Zamonaviy tarbiyachi qanday innovatsiyalarni qo'llashi kerak?" mavzusida, 5 ta yangi g'oya ishlab chiqing. Har bir g'oyani amaliy misol bilan izohlang .

4-topshiriq: Ta'limiy o'yin yaratish

Topshiriq:

- Innovatsion yondashuv asosida 1 ta ta'limiy o'yin yarating.
- O'yinning maqsadi, qoidasi va natijasini tushuntirib, guruhda namoyish qiling.

Uyga vazifa:

1. "Tarbiyachining innovatsion faoliyati" mavzusida 1 ta innovatsion mashg'ulot ishlanmasi tayyorlang. Unda kamida 3 ta zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalaning. Mashg'ulotni qisqacha tahlil qilib yozma shaklda taqdim eting.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

Mashg'ulot maqsadi:

1. Maktabgacha ta'limni texnologiyalashtirish mazmuni va ahamiyatini tushuntirish.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Mashg'ulotlarni raqamli va interfaol yondashuvda tashkil etish malakasini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tizimini texnologiyalashtirish — bu ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Bugungi globallasuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — bolalarni zamon talablariga mos, bilimli, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu esa ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi.

Texnologiyalashtirish jarayonida tarbiyachi aniq maqsadga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich rejalashtirilgan va natijaga qaratilgan faoliyatni tashkil etadi. Har bir mashg'ulot oldindan puxta loyihalashtiriladi: maqsad belgilanadi, metod va vositalar tanlanadi, kutilayotgan natijalar aniqlanadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini tartibli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ichida interfaol metodlar alohida o'rin tutadi. "Aqliy hujum", "klaster", "kichik guruhlarda ishlash", "rol o'ynash" kabi usullar bolalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil

fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, o‘yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bolalar atrof-muhitni o‘rganadi, muloqot qiladi va yangi bilimlarni oson o‘zlashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham texnologiyalashtirishning muhim yo‘nalishidir. Multimediali taqdimotlar, animatsiyalar, audio va video materiallar mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Bu vositalar bolalarning diqqatini jalb etadi, eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va tasavvurini boyitadi.

Texnologiyalashtirish jarayonida individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasi inobatga olinib, mos topshiriqlar beriladi. Bu esa bolalarning to‘liq rivojlanishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish — bu zamonaviy ta‘lim talablariga javob beradigan, samarali va innovatsion ta‘lim muhitini yaratishdir. Bu jarayon orqali tarbiyachi faoliyati takomillashadi, ta‘lim sifati oshadi va bolalar har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanadi.

Amaliy topshiriqlar: 1-topshiriq: “Texnologik dars loyihasi”

Гуруҳларга бўлиб, ҳар бир гуҳур учун битта мавзу танланади (Ой ва ҳафта мавзуларидан). Shu mavzuni AKT va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulot sifatida loyihalang.



2-topshiriq: “Muammoli vaziyat”

MTTda texnologiyalar yetishmasligi yoki noto'g'ri qo'llanishi holatini tahlil qiling. Innovatsion yechim taklif qiling .



3-topshiriq: “Metod tanlash”

3ta pedagogik texnologiya tanlang (masalan: klaster, aqliy hujum, Venn diagramma). Ularni maktabgacha ta’limda qanday qo’llashni yozing.



Ta’limiy o‘yin: “Texnologiyani top!”. Tarbiyachi vaziyat aytadi Tinglovchilar qaysi texnologiya mosligini topadi . To'g'ri javob asoslanadi.

Uyga vazifa:

1. “Maktabgacha ta’limda texnologiyalardan foydalanish” mavzusida 1 ta innovatsion dars ishlanmasi tayyorlash.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

Mashg'ulot maqsadi:

1. Rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi haqida bilim berish.
2. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.
3. O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or tajribalarni aniqlash.

Amaliy topshiriqlar: 1-topshiriq: "Mamlakat taqqoslash jadvali"

Koreya, Yaponiya va Germaniya ta'lim tizimini solishtiring. Afzallik va kamchiliklarni yozing.

"BBB" metodi

	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.			
2.			
3.			
4.			

2-topshiriq: "Eng yaxshi model"

Qaysi mamlakat modeli sizga ma'qul va nima uchun? 5 ta asosli fikr yozing.

3-topshiriq: "Tajriba qo'llash"

Xorijiy tajribadan 1 ta usul tanlang. Uni O'zbekiston MTT tizimiga qanday moslashtirish mumkinligini tushuntiring.

Ta'limiy o'yin: "Qaysi davlat?" Tarbiyachi ta'rif beradi. Tinglovchilar qaysi davlat tizimi ekanini topadi. Javobni asoslaydi.

Uyga vazifa:

1. "Rivojlangan davlatlar tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash" mavzusida qisqa esse (1–2 bet) yozish.

Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar – nogironligi bo‘lganidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj bo‘lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar.

Individual ta’lim xaritasi – bu tarbiyalanuvchining qiziqishlari va ta’lim talablari asosida tuzilgan, uning barcha qobiliyatlari va iste’dodlarini ochish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan o‘quv faoliyati dasturi.

Gender xususiyat – bu shaxsning fiziologik va ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq bo‘lib, uning hissiy-irodaviy jarayonlari, idrok mexanizmlari hamda tafakkur, diqqat va xotira tizimlari faoliyatida aks etadi.

Kvest – (ing. „Quest“ „muammo“, „izlanish“, „sarguzasht“ degan ma’noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o‘yin (ing. „Adventure game“), uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi.

Kvest o‘yini – bu bolalarning kognitiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o‘ziga xos ta’lim texnologiyasi.

“Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma’nolarni bildiradi.

Kompetentlik - deganda ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qoʻllay olinishidir.

Kreativ yondashuv — bu muammolarni hal qilishda, yangi gʻoyalar yaratishda va faoliyatni tashkil etishda anʼanaviy qoliplardan chiqib, yangicha fikrlash va innovatsion usullardan foydalanish qobiliyatidir.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash,

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, taʼlim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini toʻgʻri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qoʻllay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qoʻllash;

Maktabgacha taʼlim va tarbiya – bolalarga taʼlim va tarbiya berishga, ularni intellektual, maʼnaviy axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz taʼlim turi.

Maktabgacha taʼlim pedagogigi — bu maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktab taʼlimiga tayyorlashni amalga oshiruvchi mutaxassis.

Pedagogik kompetensiyalar — bilimlar, malaka va koʻnikmalar hamda oʻzlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga boʻlgan motivatsiyaning uygʻunlashgan majmuini oʻzida aks ettiradi

Rivojlanish (pedagogikada) – olgʻa intilish natijasida muntazam oʻzgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga oʻtish.

Tarbiya – bu jamoa va pedagoglarning tarbiyalanuvchiga shaxsni mazmunan maqsadli shakllan tirishdan iborat boʻlgan, maxsus tashkil etilgan, maqsadli va boshqariladigan ta'siri. Shu bilan birga, ta'lim tashkilotida va oilada ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'liqdir.

Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli - maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida innovatsion ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish modeli;

Fasilitatsiya (yengillashtirmoq) – (ingliz tilidan „facilitate“ – „osonlashtirish“, „rag'batlantirish“, „qulay shart-sharoitlarni yaratish“) bu ongli o'quv jarayonlaridir, bolalarning qiziqishini oshirish uchun ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ularning o'ziga ishonchini orttirish, mustaqil va samarali faoliyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan qulay muhit yaratish, rivojlanayotgan ta'lim usulidir;

Fasilitator – bu an'anaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida ishlamaydigan, aksincha, bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir (masalan, g'oyalarni tanlash, ular haqida o'z fikrlarini shakllantirish, tadqiqot va suhbat orqali materialni o'zlashtirish).

Xulq-atvor – bu shaxsning biror kishi yoki narsaga (masalan, shaxsga, guruhga, tashkilotga, masalaga, hodisaga, belgiga) nisbatan umumiy psixologik munosabati. Xulq-atvor ko'nikmalari odatda to'rt komponentdan iborat: xatti-harakat ob'ekti haqidagi e'tiqod va fikrlar, ob'ektga nisbatan hissiyot yoki tuyg'ular, ob'ektning baholash (ijobiy yoki salbiy) va ob'ektga nisbatan o'zini qanday tutishga moyillik.

Ta'lim dasturi (quyida – Dastur) – MTT davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u

davlat talablariga asosan kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlashi lozim.

Tarbiyachi — bu nafaqat bolalarga bilim beruvchi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga yo'l ko'rsatuvchi muhim pedagogdir

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida pedagoglar davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning eng maqbul va samarali shakl, metod hamda yo'llarini belgilaydi.

o'yinli (syujetli-rolli o'yin, qoidali va boshqa o'yin turlari)

kommunikativ (kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot va o'zaro munosabat)

kognitiv tadqiqotlar (kuzatish va ular bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonida tabiiy va ijtimoiy dunyoni tadqiq qilish va bilish).

Ertalabki davra suhbat – bu kunning boshlanishi, bolalarning boshlangan yangi kundan zavqlanish, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashish, yangiliklarni bilish (bugun ular nima qilishlari), birgalikdagi rejalar, muammolarni muhokama qilish va qoidalarni kelishish uchun yig'ilishadi.

Kechki davra suhbat / o'tgan kun refleksiyasi – bolalar bilan kun davomida eng esda qolarli va eng qizi qarli bo'lgan amallarni eslash, amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish va umumlashtirish hamda ertangi kun uchun tadbirlarni rejalashtirish)

Birinchi sayr – pedagog tomonidan tashkil etiladi, u asosiy faoliyat turlari (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yin, mustahkamlash, erkin faoliyat)larni o'z ichiga olib, hafta mavzusiga mos tashkil etiladi.

Ikkinchi sayr – iqlim sharoitiga (ochiq havoda, resurslarga ega rivojlanish markazlarida) ko‘ra bolalarning tanlovi bo‘yicha erkin o‘yin faoliyati.

Ichki nazorat — davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbari hamda maktabgacha ta‘limni boshqarish bo‘yicha yuqori turuvchi tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

Tashqi nazorat — qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi;

Jamoatchilik nazorati — mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlarida tashkil etiladigan jamoatchilik komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

Milliy va xalqaro darajada baholash — hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar talablari asosida maktabgacha ta‘lim boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta‘lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma‘naviy meyorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

Rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta‘sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;

Rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar;

Kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

Kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

Bola tarbiyasining majmui — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari;

Integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

Inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

Refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni;

«Men» konsepsiyasi — bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

Kommunikativ kompetensiya — muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

O'yin kompetensiyasi — bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi;

Ijtimoiy kompetensiya — hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati;

Bilish kompetensiyasi — atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sish ga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKM boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tan qidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oya larni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi

O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ertalabki qabul – bo‘limida bolalarni birlamchi tibbiy ko‘rikdan (filtr) o‘tkazish, bolaning sog‘lig‘i va holati haqida ota-onalardan ma‘lumot olish, davomatni belgilab qabul jarayonini yakunlash hamda bolalarning qiziqish va xohishlariga qarab ularni turli mehnat faoliyatlariga jalb etish ishlari amalga oshiriladi.

O‘yinlar – tarbiyalanuvchilarning qiziqish va istaklari hamda hafta mavzusi asosida ta‘limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli va sahnalashtirish o‘yinlari nomlari qayd etiladi.

Bolalar bilan suhbat – tarbiyachining ish jurnalida ta‘lim-tarbiya faoliyati qayd etilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi hamda uning maqsadi ko‘rsatiladi.

Individual ta‘lim — har bir bolaga alohida yondashuv.

Differensial ta‘lim — guruhlar orqali samarali ishlash imkonini beradi.

Yetakchilik — bu muayyan guruh faoliyatini maqsad sari yo‘naltirish, uni tashkil etish va samarali natijalarga erishishni ta‘minlash qobiliyatidir.

Mash‘ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi 2025-yil 29-avgustda “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 323-sonli buyrug‘i .
6. Grosheva I.V. Mirziyoyeva Sh.Sh. Yevstafyeva L.G. Maxmudova D.T. Nabixanova Sh.B. Pak S.V. Nazarova V.A. Isxakova M.R. Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Toshkent 2022-yil (o‘zbek va rus tillarida)
7. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (kichik guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018-y
8. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (o‘rta guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018-y.
9. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh). Metodik qo‘llanma. – T.: 2018-y.

10. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (tayyorlov guruhi). Metodik qo'llanma. – T.: 2018-y.
11. Shin A.V.Mirziyoeva Sh.Sh.Grosheva I.V.va boshqalar. “Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish” T.:2020-y.
12. Qodirova F.R. va boshq.“Maktabgacha pedagogika”, Toshkent, “Ma'naviyat”, 2013, 159 bet (O'quv qo'llanma).
13. Abdullayeva N.Sh. Kelajak sari ilk ta'lim bilan: Variativ ta'lim ; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2020-y. – 104 b.
14. Xushnazarova M.N. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” nomli dissertatsiya. Toshkent, 2021-yil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
2. X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o'quv qo'llanma / Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.
3. Нурмухамедова Н.Ф. *Мактабгача педагогика асослари*. — Тошкент: Ўқитувчи, 2018.
4. Тохтахўжаева М.Х. *Педагогика назарияси*. — Тошкент: Фан ва технология, 2019.
5. Mansurova S.R. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni gender yondashuv asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Tosh., 2025.
6. Выготский Л.С. *Мышление и речь*. — Москва: Педагогика, 1982.
7. Montessori M. *The Absorbent Mind*. — New York: Holt, 1967.
8. Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 1938.
9. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy qismlari // Lingvospektr ilmiy jurnali. – 2022.
<https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/97>
10. Nazarova B.A. *Pedagogik kompetentlik turlari va ularning mazmuni* // Lingvospektr ilmiy jurnali. – 2022.
<https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/97>
11. Vahobov M. *Pedagogik kompetensiya va uning mohiyati* // ResearchGate. – 2023. – <https://www.researchgate.net/publication/386992754>
12. Sayidov N. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. o'quv qo'llanma – Toshkent, 2018

13. Qodirov B. *Pedagogik psixologiya asoslari. darslik*– Toshkent, 2005.
14. Guilford, J. P. *The Nature of Human Intelligence*. ilmiy monografiya — New York: McGraw-Hill, 2000.
15. *Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT)*. — Princeton, NJ: Personnel Press, 1974.
16. Rogers, C. R. *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. — Boston: Houghton Mifflin, 1999.